جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 2-avgust
№ 32(32)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

NAZM GULSHANI

Mehringizni qizg‘anmang bir-biringizdan

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

DIYORA KELDIYOROVA.

PARIJ – 2024



Ismingda Vatan bordir, nasabingda ham – Vatan.
Ichdan qasd qilib ichgan qasamingda ham – Vatan.

Bu qanday yuksak sharaf, qanday buyuk tan olish,
Millat Rahnamosining qutlovi senga bolish.

Keldiyor bobolarning shahd-u shakar dilbandi,
Bir nomingdan namoyon yor-u diyor payvandi.

Ey, nopisand dunyoni bir hamlada yenggan qiz,
Parij, London, Rumoda topilmagay senday qiz!

Bir yarq etdi olamning kecha va kunduzlari,
Porlaganday Parijda Samarqand yulduzlari.

Qizim desam yarashgay, singlim desam juda soz,
Bir lahzada bir xalqni eta olding sarafroz.

Sen olgan tillo tug‘ro ko‘ksingda yarq etgan dam,
Xira tortdi Farangning farang qandillari ham.

Bu eng yuksak sharafdir, bu bir buyuk tan olish,
Millat Rahnamosining so‘zlari senga bolish.

O‘ttiz besh milyon qalbday jimirlab ketdi ko‘nglim,
Ey, mening polvon singlim, Diyorajon, jon singlim!

Bu bir kibor dunyodir – Chiroqchi yo Kosonmas,
Ovrupo panjasiga panja urmoq osonmas!

Oldingilar, qarasang, changlaringda qolibdir,
Bir o‘zingmas – butun el, yaxlit Vatan g‘olibdir!

Osiyodir bu olam “o”dan toki “yo”gacha,
Toki Tokiogacha, toki Tokiogacha.

O‘shal yopon qizga ham mening rahmatlarim bor,
Yopon qizmas, aslida yig‘ladi nomus va or.

Yuraklarim jimirlab yo‘llay she’riy kalomlar,
Sharqqa bo‘lsin salomlar! G‘arbga bo‘lsin salomlar!

Men sha’ningga so‘z izlab halakman, ovorajon,
Diyorajon, jon singlim, jon singlim Diyorajon!

Oldingilar agarchi zar-u oltinlilardir,
Eng go‘zal oltinlilar – senday oltinlilardir.

Shu boisdan ko‘ksimda zavq-u sururim lim-lim,
Ey sen, onajon singlim, ey sen, jonajon singlim!

Mabodo kayvonilar chorasiz qolsaydilar,
Eyfel minorasini kurashga solsaydilar;

Shak-shubhasiz shu zahot kurashchan va shiddatkor,
Jism-u joningda jo‘shib momomeros g‘urur, or –

Ona yurt bayrog‘ini eng tepasiga qadab
Va bu zo‘r g‘alabangni el-u yurtingga atab,

Eyfel minorini ham halol urib maydonda,
Qo‘ltiqlab kelar eding ona O‘zbekistonga!

28-30.07.2024-y.

(Davomi 4-sahifada).

Ijod va jasorat

“Ikki eshik orasi” romani o‘zbek adabiyoti xazinasida o‘z o‘rnini topgan asarlardan biri bo‘lib qoldi. Bu asar xalqlar boshiga kulfat solgan ikkinchi jahon urushi to‘g‘risida yozilgan achchiq va alamli yilnomadir.

O‘tkir Hoshimov xalqimizning fidoyi, rostgo‘y yozuvchisi sifatida hamisha o‘z mavzusi bo‘lib kelgan xalq hayotini uzluksiz kuzatadi va unda aytish nihoyatda zarur bo‘lgan nuqtalarini qalamga oladi.



(5-sahifada o‘qing).

SUHBAT

GENOFONDDAGI KO‘RINMAS XATAR



Suhbatimiz Toshkent pediatriya tibbiyot instituti dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi Bahodir Shertoyev bilan genetik kasalliklar, qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning salbiy oqibatlari to‘g‘risida bo‘ldi.

– Mutaxassislar qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh kelajak avlod uchun xavfli ekanini ta’kidlashadi. Odamlar bunday nikohning salbiy oqibatlarini yaxshi bilishsa-da, qayta-qayta tushuntirishlar olib borilsa-da, baribir, ularning soni kamaymayapti. Irsiy kasalliklarning sababi, oqibatlarini tibbiyot tilida to‘liqroq tushuntirib bersangiz.

– Qarindoshlar o‘rtasidagi nikohdan sog‘lom bolalar ham dunyoga keladi, hammasi ham kasal bo‘lavermaydi. Lekin kasal bolaning tug‘ilish ehtimoli begonalar o‘rtasidagi nikohga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi. Bu nikohdan sog‘lom bola tug‘ildi deylik, lekin keyingi avlodda bunday bo‘lmasligi mumkin. Fanda qarindoshlar o‘rtasidagi nikohdan yigirma besh foiz kasal, yetmish besh foiz sog‘lom bola tug‘ilishi ehtimoli bor deyiladi. Biroq yigirma besh foiz ham katta ko‘rsatkich, aslida.

(Davomi 2-sahifada).

NUQTAYI NAZAR

ADOLAT – ROZI-RIZOLIKNING YAGONA YO‘LI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yaqinda dunyoga kelgan “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori Vatanimizda izchil qat’iyat bilan keng sur’atda olib borilayotgan adolatparvarlik, insonparvarlik, islohparvarlikka yangi, juda katta to‘lqin bag‘ishlaydi. Bular erkin demokratik taraqqiyotning yo‘llari-yo‘nalishlarini mamlakatimizda miqyosan yangicha bosqichga olib chiqadi.



Ibrohim G‘AFUROV,
O‘zbekiston Qahramoni

Qaror boshdan oyoq, birinchi harfidan oxirgi harfigacha mamlakatimizda bundan buyon qilinishi zarur bo‘lgan nihoyatda aniq-tiniq, real va dolzarb masalalar hamda davlat tashkilotlaridan tortib barcha fuqarolarga daxldor bo‘lgan ijtimoiy-hayotiy muhim vazifalarni bayon etadi.

Adolatni tiklash, barcha sohalarda adolatli siyosat yuritish ijtimoiy ongning sifati darajasiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy ong shu paytgacha bo‘lgandan ko‘ra boshqacha yorishadi, teranlashadi, faollashadi. Bu qarorning keng miqyosdagi ijro madaniyati fuqarolarning o‘zaro munosabatlarida axloqiy-ma’naviy yaqinliklar, ishonch va ruhafzoliklarni uyg‘otadi.

(Davomi 2-sahifada).

EKSPEDITSIYA



O‘rxun-Enasoy toshbitiklari – turkiy ellarning umummerosi, eng qadimiy yozma yodgorligi. Ularning namunalari Mo‘g‘ulistondagi O‘rxun daryosi vodiylaridan, Tuva, Xakasiya, Krasnoyarsk o‘lkasidagi Enasoy daryosi va uning irmoqlarining ikki qirg‘og‘i bo‘ylab joylashgan manzilgohlardan juda ko‘p miqdorda topilgan. Shu sabab bu bitiklarga “O‘rxun-Enasoy toshbitiklari” degan nom berilgan.

ENASOY XAZINASI *bilan yuzma-yuz*

Bundan tashqari, toshbitiklar Sharqiy Turkiston, Sharqiy Yevropa, Oltoy, Boyko‘lbo‘yi, Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududidan (Farg‘ona, Surxondaryo va boshqa joylardan) ham topilgan.

Joriy yilning 5–17-iyul kunlari bir guruh olimlar, ijodkorlardan iborat “Bobolar izidan...” nomli ilmiy-ijodiy ekspeditsiyaning yo‘l xaritasiga ko‘ra, Chimkent – Taroz – Olmaota – Shamay – Tog‘li Oltoy yo‘nalishi bo‘yicha borilib, Oltoyda bo‘lib o‘tadigan “El o‘yinlari” etnofestivalida ishtirok etish, so‘ngra Abag‘an shahriga yo‘nalib, Enasoy bitiklarini o‘rganish rejalashtirilgan edi.

“El o‘yinlari” etnofestivalidan chiqib, o‘n uch kishilik ekspeditsiya a’zolari oltoylik folklorshunos olima Alevtina Nayeva hamrohligida Xakasiyaning boshkenti Abag‘an shahriga yo‘l oldik. U yerda abag‘anlik hamrohlar ko‘magida xakaslarning tili, urf-odatlari, folklori va bitiktoshlarni o‘rganishga kirishdik.

Enasoy daryosi Tuva Respublikasining markazi Qizil shahri yonida, katta Enasoy va kichik Enasoy o‘zanlarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Tuvalar bu o‘zanlarni “Enasoy” emas, aksincha “Biyxem” (katta o‘zan) va “Qaaxem” (kichik o‘zan) deb atashadi. Enasoyga esa “Ulug‘xem” deya nom berishgan.

(Davomi 3-sahifada).

TARIX VA TAQDIR

MILLAT FIDOYILARI:

NIZOMIDDIN XO‘JAYEV

Mudhish qatag‘on davrida o‘n yil mehnat-tuzatuv lagerlari azobini tortgan jadid Laziz Azizzoda bilan ilk tanishuvimiz o‘tgan asrning 70-yillari boshida “Guliston” jurnali tahririyatida yuz bergan. 1967-yili “Fan” nashriyotida domlaning “Inqilob kurashchisi” risolasi e’lon qilingan edi. Unda jadid, keyinchalik bolshevik, davlat va hukumat arbobi, qatag‘on qurboni Nizomiddin Xo‘jayev faoliyatining ayrim qirralari birinchi bor ochib berilgan. O‘sha zamonlarda yopiq arxivlardan qatag‘on qilinganlar to‘g‘risida ma’lumot olish juda mushkul bo‘lgani bois Xo‘jayevning qatag‘on qilinishi tafsilotlari batafsil yoritilmagan.

Yaqinda Nizomiddin Xo‘jayevning qatag‘on qilinishi to‘g‘risidagi noyob hujjat va materiallar bilan tanishishga imkon yaratildi.

Jadidlik Turkistonda juda katta ta’sirchan ijtimoiy-siyosiy kuchga ega edi. Turkistondagi jadidlikdan sovetlar, bolsheviklar, hatto Xalq komissarlari soveti raisi V.Lenin va uning safdoshlari ham boxabar bo‘lgan va bu taraqqiyparvar harakat ularni qattiq tashvishga solgan.

Nizomiddin Xo‘jayev 1920-yilning o‘zida ikki marta Lenin qabulida bo‘lgan. Birinchi suhbat mazmunidan kelib chiqib, “proletariat dohiysi” Nizomiddin Xo‘jayevdan Turkiston va uning taqdiri to‘g‘risida, ayniqsa, O‘rta Osiyodagi panislomizm haqida umumiy ma’lumot berishni iltimos qilgan. Nizomiddin Xo‘jayev Moskvadagi mehmonxonalardan birida ana shu hujjatni tayyorlab,



Leninga taqdim etgan. Bu hujjat “Panislomizm haqida” deb nomlangan bo‘lsa-da, aslida islom manfaatlarini himoya qilib yozilganligi uchun uning mazmuni sovet davri tarixshunosligida umuman keltirilmagan va sharhlanmagan.

(Davomi 7-sahifada).

GENOFONDDAGI KO‘RINMAS XATAR



Boshlanishi 1-sahifada.

Inson tanasida qirq oltita xromosoma bor. Bu xromosomalar tanamizdagi har bir hujayra ichida joylashgan. Ularning har bittasida bir necha yuzlab genlar bo‘ladi va har biri o‘zining vazifasini amalga oshiradi. Aytaylik, mana shu genlardan birortasi mutatsiyaga – o‘zgarishga uchrab buzilgan bo‘lsa, oiladagi farzandlarning bittasiga shu gen tushib qolishi mumkin. Begonalar turmush qurishsa, ayoldagi buzilgan gen turmush o‘rtog‘ida butun bo‘ladi va sog‘ genning dominant bo‘lish, ya’ni yuzaga chiqish ehtimoli ortadi. Agar er-xotin qarindosh bo‘lsa, o‘zgargan genlar ham bir xil bo‘ladi va oqibatda kasalmand bola dunyoga keladi.

– Genning mutatsiyaga uchrashi sababi nimada?

– Homila rivojlanayotgan paytdagi har qanday tashqi salbiy ta’sir mutatsiyaga sabab bo‘lishi mumkin. Onaning yiqilib tushishidan tortib, rentgen apparatiga tushishi, kuchli magnit maydonida qolib ketishi ham xavfli. Ovqatdan zaharlanish deysizmi, erning kaltaklashi, kuchli stresslar, qaynonaning zug‘umlari – hech biri beiz ketmaydi. Mana shundan mayib-majruh, kasalmand bolalar tug‘iladi. Bir avlodda mutatsiya bo‘lib, yuzaga chiqmasdan, bola sog‘lom bo‘lib dunyoga kelishi ham mumkin. Masalan, uning tanasida yurak klapanini belgilaydigan gen o‘zgargan. Agarda shunday bir xil genli odam bilan turmush qursa, unda homila nobud bo‘ladi, yuragi urmaydi. Agar nikoh begonalar o‘rtasida bo‘lsa, aynan bir xil geni mutatsiyaga uchragan odamlarning bir-biriga uchrash ehtimoli milliondan bitta bo‘ladi. Shuning uchun qayta-qayta takrorlaymiz, yuzaki qaraganda qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning yomonligi ko‘zga ko‘rinmaydi, bilinmaydi. Lekin bu aldamchi holat bo‘lishi hech gap emas.

– Xalqimizda bo‘lajak kelin yo kuyovning yetti pushtini surishtirish odati bor. Ayting-chi, kasalliklarning avloddan avlodga o‘tish davomiyligi qancha?

– Mutatsiyaga uchragan gen begonalar bilan oila qurish natijasida asta-sekin yo‘qolib boradi. Aniqrog‘i, uchrash chastotasi kamayib ketaveradi. Farzand tug‘ilganda ota-ona geni bilan o‘xshashligi ellik foiz bo‘ladi. Nevarada 25, evara 12.5, yettinchi avlodga borib genlarning o‘xshashlik darajasi 1 foiz ham chiqmaydi va shu tarzda qisqarib boradi. Shunda hisoblab chiqilsa, sakkizinchi avlodga borib begonalashadi. Qadimdan ota-bobolarimiz bejiz yetti avlod qarindosh, sakkizinchisi begona bo‘ladi deyishmagan. Bu genetik jihatdan isbotlangan.

– Ayrim hududlarda qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh avjiga chiqqan. Bu kelajakda millat salomatligi, genofondiga qanday ta’sir qiladi?

– Juda salbiy ta’sir qiladi. Masalan, tog‘li hududlarni olaylik. U yerda yashaydigan besh yuz, ming xonadon faqat shu hududdagilar bilangina quda-andachilik rishtalarini bog‘laydi. Chunki sharoitni hisobga olishadi. Noqulay ob-havo, transport vositalarida yurish qiyinligi uchun o‘z qishlog‘idan kelin olish, kuyov qilish qulay. Bu holatda ham kasallik keltirib chiqaradigan genlar shu qishloqda aylanib yuraveradi. Chunki ota-bobolari ham bir-biri bilan quda-anda, qarindosh bo‘lib ketishgan. Ular go‘yoki begonaday, ammo genofond o‘xshash. Bu jamiyatda kasal odamlar, majruh bolalarning ko‘payishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun iloji boricha uzoqroq joylardan oila qurish kerak.

– Hozir butun dunyoda gen muhandisligi sohasi rivojlanyapti. Nahotki, genetika rivojlansa ham irsiy kasalliklarni davolash imkonsiz bo‘lsa? Bu kasalliklar tashqi omillarga ham bog‘liqmi?

– Gen monitoringida ba’zi kasalliklarning ayrim hududda qanchalik tarqalganini aniqlash mumkin. Aytaylik, Buxoroda bir kasallik bilan og‘rigan yigirma nafar, Andijonda o‘n besh, Xorazmda yigirma besh bola tug‘iladi. Lekin Qashqadaryoda ikki yuz nafar tug‘ilyapti. Buning sababi aniqlanadi. Kasallikni o‘rganganda tashqi muhit, ob-havoning ifloslanishi kabi omillarga qaraymiz. Hamma narsa bir-biriga bog‘liq.

– Genni tekshiradigan testlarni yo‘lga qo‘yish foyda beradimi?

– Rivojlangan mamlakatlarda genetika sohasida ko‘plab ishlar qilinmoqda. Buning uchun uzoq muddat, ko‘p mablag‘ kerak. Hozircha biz buni to‘liq qo‘llay olmaymiz.



Qolaversa, bu yo‘l bilan ham kutilgan natijaga erishmasligimiz mumkin.

– Gen muhandisligi rivojlansa, nimalarning oldini olish mumkin? Uning qanday foydali jihatlari bor?

– Talabaligimda har yili yozda Moskva shahriga borib, “Genetik injeneriya” laboratoriyasida ishlab, ancha tajriba orttirganman. Bu juda katta soha. Uning insoniyat uchun foydasi ham, xavfi ham ko‘p. Gen muhandisligi tajribalaridan foydalanib dunyoni yo‘qotib yuborish ham mumkin.

Ko‘pchilikka ma’lum, qandli diabet kasalligida insulin ishlab chiqarish darajasi pasayadi va kasallikka chalingan odam doimiy ravishda dori-darmon qabul qilib yurishga majbur bo‘ladi. Oshqozonosti bezida joylashgan langergans orolchasida insulin gormoni ishlab chiqariladi. Organizmda insulin ishlab chiqaradigan gen bor. Shu genni sun’iy hosil qilish ham mumkin. Sun’iy gen langergans orolchasidagi hujayra ichiga solib qo‘yiladi. Uni ko‘paytirib, tananing biror joyiga kiritilsa, hammasi joyiga tushadi.

Yana bitta yo‘li bor. Oddiy bakteriyalarning insulinni sintez qiladigan turlari mavjud. O‘sha genni olib bakteriyaning ichiga kiritib qo‘yiladi. Natijada bu bakteriya insulin ishlab chiqara boshlaydi. Ularni laboratoriyada ko‘paytirib, insulinga muhtoj odamlarga tarqatish mumkin. Lekin dunyoda, juda ko‘plab insulin ishlab chiqaradigan zavodlar bor. Ular o‘z mahsulotini sotishi kerak. Genetik muhandislikni qo‘llasak, ularning biznesiga bolta urgan bo‘lamiz. Shuning uchun ham ular bunga, qanday qilib bo‘lsada, yo‘l qo‘yishmaydi.

– Siz aytayotgan sun’iy gen keyingi avlodga ham o‘tadimi?

– Kasal odamga ko‘chirib o‘tkazilgan gen keyingi avlodga o‘tolmaydi. O‘zining kasal geni o‘tadi. Chunki bitta genni tuzatganingiz bilan xromosomaga kiritib bo‘lmaydi. Irsiyatga bog‘liq kasalliklarni hech qanday yo‘l bilan butunlay davolashning iloji yo‘q. Kelajakda genetik terapiya qilish niyatimiz bor. Bunda majruh genni olib tashlab, o‘rniga sog‘ genni qo‘ymoqchimiz. Hali o‘sha zamonlar ham keladi. Chunki ilm-fan kun sayin taraqqiy etyapti. To‘g‘ri, rivojlangan mamlakatlarda hozir ham juda ko‘p ishlar qilinyapti. Bunday tadqiqotlar moddiy sharoit, zamonaviy texnologiyalarni talab qiladi.

– Nikoh yoshiga yetmasdan oila qurish holatlari ham ko‘p uchramoqda. Bunday holda ham tug‘ilajak farzandlar salomatligiga xavf bormi?

– Balog‘atga yetmaganlarning oila qurishi ham yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunki yosh organizm hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Homila rivojlanishi uchun oziq moddalarning hammasini ona organizmidan oladi. Nikoh yoshiga yetmagan organizm doim ham homilador bo‘lishga tayyor emas. Har bir narsa o‘z vaqtida bo‘lgani yaxshi. Inson tanasida ma’lum gormonal o‘zgarishlar bo‘lishi kerak. Ular homilaning o‘sishini ta’minlaydi.

– Hozir psixologiyaning psixogenika degan tarmog‘i ommalashyapti. Psixogenetiklar o‘z metodlari orqali inson genini tozalash mumkinligiga da’vo qilishadi. Ularning aytishicha, yomon ishlar qilish, so‘kinish, hatto g‘iybat qilish ham inson DNKsini o‘zgartirar emish. Ayting-chi, psixologik usullar yordamida genni tuzatish mumkinmi?

– Gen bir joyda turadi. Keyin u bitta emas, milliardlab. G‘iybat genni o‘zgartirishi bu – bo‘lmag‘ur gap. Faqat ruhiy holatda, miyaning katta yarim sharlariga yomonlik o‘tirib qolishi mumkin, lekin genga emas. Bu kabi har xil yo‘nalishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad – pul ishlash. Yaxshi kayfiyat ta’sirida odam darddan tezroq forig‘ bo‘lishi, oyoqqa turishi bor gap. Siz ijobiy hislar bilan yashasangiz, atrofingizdagi hamma narsa yaxshi bo‘ladi. Yomonlik haqida o‘ylasangiz, gormonlar ham o‘zgaradi, sog‘ligingiz yomonlashadi. Ko‘plab kasalliklar yuzaga chiqadi.

– Bahodir aka, siz soha mutaxassisi, bir shifokor sifatida genetik kasalliklarni kamaytirish uchun qanday choralar ko‘rish kerak, deb hisoblaysiz?

– Ijtimoiy tarmoqlarda bog‘cha opalarning bolani kaltaklagani haqida o‘qib qolaman. Har safar buni ko‘rgan boshqa tarbiyachilar endi bolalarni hech qachon urmasa kerak deb o‘ylayman. Afsuski, oradan bir hafta o‘tar-o‘tmas yana shunday xabarlar tarqaladi. Qarindoshlar o‘rtasidagi nikohda ham xuddi shunday. Genlari bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan, kasal bola tug‘ilishi muqarrar bo‘lgan oilalarga ajrashishni, boshqa oila qurishni maslahat berganimizda ular eshitishni ham xohlashmaydi. Natijada to‘rtta-beshtalab mayib-majruh bolalarni dunyoga keltirishadi. Bunday bolalar esa jamiyat uchun ham, ota-ona uchun ham muammo. Negadir xalqimiz orasida o‘z ko‘zi bilan ko‘rsa ham, boshidan o‘tkazsa ham to‘g‘ri xulosa chiqarmaydiganlar juda ko‘p. Aslida qarindoshlar o‘rtasidagi nikohga jinoyat darajasida qarash kerak. Masalan, Yevropa davlatlarida umuman bunday nikohga yo‘l qo‘yilmaydi. Qanday bo‘lmasin, qarindoshlar o‘rtasidagi nikohdan uzoq yurish kerak. Bu yaxshilikka olib kelmaydi.

Men talabalarimga qarata bemorlar, ayniqsa, bolalarga shunchaki bir begonaga qaragandek munosabatda bo‘lmaslik kerakligini aytaman. Har bir bolani mehr bilan davolash kerak. Chunki uni ertaga o‘zimiz kelin yo kuyov qilishimiz mumkin. O‘zganing bolasini asrab ham o‘z avlodingni asragan bo‘lasan. Shuning uchun har bir bolani mening bolam deb davolash shart. Nafaqat shifokor, balki har bir kasb egasi bolalarga shunday qarashi kerak.

– Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur!

Muyassar IBROHIMOVA suhbatlashdi.

MUNOSABAT

O‘TMISH HAQIQATI – KELAJAK KO‘ZGUSI

Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan to 1991-yili O‘zbekiston o‘zining mustaqilligini e’lon qilgungacha bo‘lgan davrni tariximizning eng og‘ir sahifalari desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chor hukumati ham, mustabid sovet tuzumi ham bu davrda mahalliy millatlarning yuksalishi u yoqda tursin, ularning savodli bo‘lishidan ham qo‘rqdi. Chunki savodli millat o‘z haq-huquqini taniydi va talab qiladi. Bu esa hukmron tuzumning siyosatiga umuman to‘g‘ri kelmas edi. Shunga qaramay, Turkistonda millatni tom ma’noda uyg‘otish, savodli va bilimli qilishni ko‘zlagan jadidlik harakati shakllandi, millatning yetakchilari o‘rtaga chiqdi.



Zaynobiddin ABDIRASHIDOV, filologiya fanlari doktori, Anqara Hoji Bayram Vali universiteti professori

Chor hukumatining tazyiqlariga qaramay, o‘z jonini garovga qo‘yib faoliyat olib borgan millat fidoyilari oxir-oqibat sovetlarning qonli qatag‘on mashinasiga duchor bo‘ldi. Ular millat ravnaqi, ozodligi va mustaqilligi yo‘lida shahid ketdilar. Shu ma’noda, kuni kecha imzolangan Prezident qarori nohaq qatag‘on qilingan millat fidoyilarining xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan navbatdagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

So‘nggi yillarda bu borada olib borilgan ishlarning ko‘lami ancha katta. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan oxirgi uch yilda 1 ming 200 nafardan ziyod siyosiy qatag‘on qurbonlarining nomlari oqlangani yangi tariximizda olamshumul yangilik sifatida qabul qilindi. Ammo hali bu borada qilinadigan ishlar juda ko‘p. Ushbu qaror sharofati bilan yaqin orada yana minglab qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyati sinchiklab o‘rganiladi, ularning millatimiz oldidagi tarixiy xizmatlari haqida arxiv va muzeylar, kutubxonalar va turli fondlarda saqlanayotgan yangi ma’lumotlar to‘planadi, tadqiq etiladi va ommalashtiriladi. Tariximizning noayon sahifalari ochilib, xalqimizga panada qolgan haqiqatlar yetkaziladi.

Jadidlar xalqimizning asl tarixini yozishga ko‘p harakat qildilar. Ular yurt tarixini bitadigan, tadqiq qiladigan kishi maddohlikdan, haqiqatni afsonalashtirishdan yiroq bo‘lishi kerak, deb hisobladilar va o‘zlari ana shu tamoyil asosida harakat qildilar. Mustaqil O‘zbekistonning yaqin va yangi tarixi ham aynan shu tamoyil asosida yaratilishi kerak. Chunki tarix, yana jadidlar ta’biri bilan aytadigan bo‘lsak, o‘tmishdan so‘ylab, kelajakni anglatadi. Ya’ni, millat o‘zining haqqoniy tarixiga nazar solib, o‘tmishda yo‘l qo‘yilgan xatolarni kelajakda takrorlamaslikka intiladi, taraqqiyotga eltuvchi yo‘ldan qat’iy va sobit ilgarilashga harakat qiladi.

Mazkur qaror aynan mana shunday maqsadlarga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Ushbu hujjatda ta’kidlanganidek, Vatanimizning yaqin o‘tmishini xolis va haqqoniy yoritish “mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, tariximizning noma’lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish, inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodning Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg‘usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ularni bugungi tinch, erkin va ozod hayotning qadriga yetish ruhida tarbiyalash”ga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida millatning o‘zligini tanishiga, Uchinchi Renessans poydevorini yanada mustahkamlashga olib keladi.

Mazkur tarixiy qaror millatimizga muborak bo‘lsin!

ADOLAT – ROZI-RIZOLIKNING YAGONA YO‘LI

Boshlanishi 1-sahifada.

XIX–XX asrlarda O‘zbekiston nihoyatda og‘ir, o‘ta fojiali tanazzullarni boshidan kechirdi, istibddoga uchradi, bu uzoq davr, qariyb yuz ellik yildan ortiq davom etdi. Mustabid tuzumlar xalq, mamlakat, millat va uning buyuk tarixini tamomila yo‘qotishni, tinimsiz sur’atda assimiliyatsiya mash’um siyosatini o‘tkazishni zo‘ravonlik va rang-barang dog‘uli mafkuraviy nayranglar, yolg‘onchilik, o‘taketgan munofiqlik bilan tiqishtirib keldi. Adolatsizlik va istibddodga qarshi tinmagan kurashlar, qo‘zg‘olonlar, ilk milliy davlatchilik – Qo‘qon muxtoriyatini tuzish davrlarida minglab begunoh kishilar qirildi. Qaror satrlarida haqqoniy qayd qilinganidek, yuz minglab tirik jonlar qurbon qilindi, otib tashlandi, surgun-badarg‘aga uchradi, xalqning ustun qatlami “quloq” va “bosmachi”ga chiqarildi.

Ammo xalq belda belbog‘ini yechmadi, o‘roq-ketmonini uloqtirmadi. Kezi kelsa, ular bilan zolimlarga qarshi kurashdi, qullikka bo‘yin bermadi. Ammo qurbonlar saf-saf, xalqning qoni daryoday oqdi.

Qaror har bir so‘zi bilan uzoq davom etgan shunday adolatsizliklar, zulmlarga o‘z keskin bahosini bermoqda, adolat va insonparvarlik, demokratiyani tiklash, qaror toptirish yo‘lida muhim takliflarni ilgari surmoqda. Bunda yana bir g‘oyatda dolzarb masala – mustaqillikni mustahkamlash bilan chambarchas bog‘lamoqda. Zero, turli darajadagi tahdidlar yo‘qolgan emas, imperialistik nayranglar tamomila yangicha tus olmoqda. “Ta’sir doirasi yaratish”, “makonlarga birodarona egalik qilish”, omonsiz iqtisodiy changalga olish, u yer-bu yerlardan o‘kirib-bo‘kirib qo‘yishlar hamon ustimizda balo-qazo bo‘lib turibdi. Aslo ko‘z yumib bo‘lmaydi. Iqtisodiy tangliklarda davlatlarning qovurg‘alari qayrilib ketadi, tazyiqlarga ko‘nish, “murosayi madora” boshlanadi. Yo‘q, aslo! Bu yaramas yo‘l! Tarixda bu qayta-qayta o‘z isbotini topdi. Mamlakat sarhadlariga zararli yangi imperialistik g‘oyalar va o‘taketgan past tovarlarni qat’iyan kiritmaslik choralari qo‘llanmog‘i lozim. Kiberxavfsizlik asosiy o‘rinda tursin! Qarorda belgilanayotgan katta miqyosdagi vazifalarni bajarish uchun Respublika tashkiliy komissiyasi tuzilmoqda. Qatag‘on qurboni bo‘lgan shaxslarning hayoti va faoliyatini o‘rganish, ularni nomma-nom aniqlash, tarixiy xizmatlari haqidagi ma’lumotlarni, arxiv va muzeylar, kutubxonalar va turli fondlarda saqlanayotgan hujjatlarni to‘plash va tadqiq etish, ommalashtirish kabi katta-katta vazifalar ko‘zda tutilmoqda. “Qatag‘on qurbonlari” xotira kitobini chop etish, har yili oktyabr oyining birinchi haftasini Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi deb e’lon qilish, “Mustaqillik darslari”ni jadidlar, siyosiy qurbonlar faoliyatini o‘rganish yo‘nalishlari bilan boyitish belgilanmoqda. Va bularning barida yosh avlodni jasorat va vatanga fidokorlik ruhida tarbiyalash, tarix xotirasini mustahkamlash kabi o‘ta olijanob g‘oyalar nazarda tutilmoqda. Albatta, bunda asosan mustabid tuzumlar davrida siyosiy zulmga uchragan shaxslarni reabilitatsiya qilishdek ulkan ishlarni izchil davom ettirish eng muhim vazifalardandir. Hozirgacha bir ming ikki yuzdan ortiq zulm qurbonlarining nomlari oqlanganligi qarorning azmi shijoati naqadar ulug‘, ishlar baravj va bardavomligini ayon ko‘rsatadi.

Enasoy xazinasi bilan yuzma-yuz

Boshlanishi 1-sahifada.

Yuqori Enasoy Tuva tovoqsoyidan boshlanib, to Soyon qo‘riqxonasigacha davom etadi. Keyin yana o‘nlab ulkan shaharlarni kesib o‘tadigan bu buyuk daryo Do‘lg‘an qardoshlarimiz makon tutgan Tutin shahriga yetganda juda keng va sokin daryoga aylanadi. Daryo Shimoliy Muz okeanidagi Kar dengiziga borib quyiladi.

Azal-azaldan bu buyuk daryo va uning irmoqlarining vodiylarida, o‘rmonlarida oltoy ellari, xususan, turkiy qavmlar yashab kelgan. Tuvalar, shorlar, altaylar, xakaslar, dolg‘anlar, saxa(yakut)lar hamon



bu buyuk daryoning egalaridir. Shu sabab turk eli uni “Enasoy” deb ardoqlaydi.

Qadim davrlardan turkiy xalqlar yashab kelgani uchun Enasoyning vodiylari turkiy bitiktoshlar va boshqa yodgorliklar bilan to‘la. Yodgorliklar asosan runik yozuvlar, tamg‘alar, astral, antropomorf va zoomorf tasvirlar saqlangan g‘orlar, qoyatoshlar, oddiy tosh yoki qayroqtosh, shuningdek, maxsus ishlangan toshlardan iborat. Ular orasida eng ahamiyatlisi, albatta, bobolar tarixi haqida keng ma’lumot bera oladigani runik yozuvlari – qadimiy turkiy bitiklardir.

Bitiklar ishlov berilmagan oddiy yoki qayroq toshlarga, maxsus kesib shakl berilgan toshlarga, balbaltoshlarga yoki qo‘lda tayyorlangan qumtoshlarga bitilgan. Ularning soni esa juda ko‘p. Birgina Tuva Respublikasining hududidan 82 ta bitiktosh, yuzlab antropomorf va zoomorf tasvirli toshlar topilgan. Ular orasida eng mashhuri Qizil shahridagi Tuva milliy muzeyida saqlanayotgan Ye43 (Qizil Chiraa I) toshbitigidir.

Toshbitik taxminan VIII-IX asrlarda yozilgan bo‘lib, Enasoyning Boyonko‘l o‘zani vodiysidagi Qizil Chiraa manzilgohidan topilgan. U 1961-yilda I.A.Batmanov tomonidan tadqiq qilingan. Yodgorlik qizg‘ish qumtoshdan yasalgan bo‘lib, old tomoniga va chap yoniga 5 qator yozuv yozilgan. Balandligi – 1,84 metr, oldi va ort tomonining eni – 0,45 metr, yon tomoni – 0,13 metr.

Xakasiya Respublikasi hududida ham 80 dan ortiq turli toshbitiklar topilgan. Bu yodgorliklarning asosiy qismi Xakasiya milliy o‘lkashunoslik muzeyida saqlanadi.

Enasoy toshbitiklari orasida eng yirigi Ye-48 (Abag‘an) shifri ostida saqlanadigan toshbitik bo‘lib, u 510 ta harfdan iborat. Uni Minusinsk muzeyida ko‘rish mumkin. Toshbitik kulrang qumtoshdan taroshlab tayyorlangan, unga 16 qator bitik o‘yib bitilgan. 6 qatori oldida, 7 qatori orqada, qolgan uch qatori ikki yon tomoniga sig‘dirilgan. Toshbitik 1916-yilda Adrianov tomonidan Abag‘an daryosining o‘ng qirg‘og‘idan topilgan.

Krasnoyarsk o‘lkasida ham qadimiy yodgorliklar bisyor. Ular asosan Minusinsk tovoqsoyidan, Kem va Oya o‘zanlarining vodiylaridan topilgan. Ammo, afsuski, juda ko‘plab raritetlar, hatto yirik qoyatoshlar va g‘orlar ham XX asrda barpo etilgan suv omborlarining ostida qolib ketgan. Topilmalarning aksariyati Krasnoyarsk o‘lkasi o‘lkashunoslik muzeyida, Minusinsk mintaqaviy o‘lkashunoslik muzeyida, Davlat Ermitajida va Moskvadagi Tarix muzeyida ko‘rgazmaga qo‘yilgan.



Enasoyning quyi oqimida ham kichik hajmdagi toshlar, shuningdek, ayrim buyumlarga yozilgan bitiklar topilgan. Dolg‘an-nenes muxtor okrugi va Yakutiyada topilgan runik yozuvlar “Yakut bitiklari” deb ataladi. Bu yozuvlar turkiy runik yozuvlarining o‘zgargan shaklidir.

Enasoy yozuvlari bo‘yicha ilk kashfiyotlar Pyotr I ning maslakdoshi doktor Daniil Gotlib Messershmidtga tegishlidir. U 1721-yilning avgust oyida Uybat o‘zanining chap irmog‘idan majorlar qilichiga o‘xshash egilgan ustunsimon toshbitikni topadi. Toshustunning hamma tomoni yozuvlar bilan to‘la bo‘lib, afsuski, uni olimning o‘zi o‘qiy olmagan.

Enasoy yozuvlarini birinchi bo‘lib 1893-yilning 23-noyabrida daniyalik tilshunos Vilgelm Tomsen o‘qiy olgan va uning birinchi o‘qigan so‘zi “Tengri” va “Turk” so‘zlari bo‘lgan. Shu sababli Turksoy xalqaro turk madaniyati tashkiloti tomonidan har yili 23-noyabr – Turkiy alifboning qayta tiklanishi xalqaro bayrami sifatida nishonlab kelinadi.

Bundan 20 yil oldin oltoyshunoslar turkiy yozuvlarning mazmuni borasida ko‘proq Yevropa olimlarining tadqiqotlariga suyanishgan. Ammo keyin vaziyat o‘zgardi. Ma’lum bo‘lishicha, o‘qilgan yozuvlarni sharhlashda turkiy olimlarning talqinlari asl mazmunga yaqinroq ekan.

Keyingi yillarda O‘rxun-Enasoy yodgorliklarini o‘rganishda Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Janubiy Koreya va Yaponiya olimlari yetakchilik qilishmoqda. Taassufki, o‘zbek olimlari bu borada ancha orqada. Abag‘anda Xakasiya til, adabiyot va tarix ilmiy tekshirish instituti xodimlari bilan uchrashganimizda ular O‘zFA O‘zbek tili, adabiyot va folklor instituti bilan hamkorlik qilishayotganini eshitib xursand bo‘ldik. Ammo arxeologlar bu yerda ish olib borgani haqida biror ma’lumot uchratmadik.



Shu o‘rinda, O‘rxun-Enasoy yodgorliklarini o‘rganish o‘zbek olimlariga nima beradi, degan savol tug‘iladi. Bunga javoban xakas olimlaridan eshitganim bir voqeani keltirib o‘tishni lozim topdim.

Yaponiyalik oltoyshunoslar Xakasiya ilmiy tekshirish institutlari bilan doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishgan, chunki ular ham asli oltoy xalqining bir bo‘lagi. Ular xakas olimlari bilan hamkorlikda Enasoy yodgorliklarini ham tadqiq qilishadi.

2005-yilda Kemerovo universitetining arxeologi Anna Muxareva Xakasiya va Krasnoyarsk o‘lkasi chegarasidagi Intiqko‘l atrofidan Tagar madaniyatiga tegishli toshbitikni topishga muvaffaq bo‘ladi. Ammo ayrim harflar yetishmagani uchun yozuvlarni to‘liq o‘qiy olmaydi. Shundan so‘ng yordam so‘rab yaponiyalik professor Osavaga murojaat qiladi. Osava toshbitikdan aniq nusxa olib kattalashtiradi va 28 ta harfni topib uni to‘liq o‘qishga erishadi.

Unda mazmunan quyidagilar yozilgan ekan: “(men) Erkin qor yog‘ganda yiqildim va o‘ldim, xuddi tosh kabi mangulikka yuz tutdim”.

Qizig‘i shundaki, shu paytgacha bu yerdan oldin topilgan qabrtoshlardan birontasida “erkin” so‘zi uchramagan ekan. Aniqlanishicha erkin urug‘ oqsoqollariga beriladigan unvon bo‘lib, u “Eltebar”, ya’ni oliy hukmdordan ancha kichik bo‘lgan unvon ekan. Yana bir farazga ko‘ra, “erkin” to‘laqonli huquqqa ega bo‘lgan kishilar unvoni bo‘lib, hozirgi fuqaro so‘ziga mos kelar ekan. Buni eshitgach, “shuni o‘zbek topsa bo‘lmasmidi?” deyman ichimda.

Xulosa shuki, o‘zbek millati doim ilmda oldingi saflarda bo‘lgan. Tomirlarimizda buyuk allomalarning qoni oqib turibdi. Shunday ekan, bobolar qoldirgan merosni o‘rganishda ham oldingi safda bo‘lishimiz kerak.

To‘g‘ri, bundan o‘n yil oldin respublikamiz hududidan chiqib tadqiqot olib borishga imkonimiz yo‘q edi. Ammo davlatimiz tomonidan keyingi yetti yilda ilmiy sohani rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirildi, olimlar va tadqiqotchilar uchun sharoitlar yaratildi. Biz “Bobolar izidan...” ekspeditsiyasi yo‘nalishi bo‘yicha Qozog‘iston va Rossiyaning institutlarida olimlar bilan uchrashar ekanmiz, o‘zaro suhbatlarda ish haqlarimizni solishtirdik. O‘zbek olimlari va professor-o‘qituvchilariga ulardan ko‘ra ko‘proq haq to‘lanar ekan. Ammo ilmiy-innovatsion, tajriba-tadqiqot ishlarida ulardan orqadamiz. Menimcha, hukumatimizning ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rliklariga monand ravishda olimlarimiz ilmiy loyihalarni yanada ko‘paytirishi lozim.

Vatanimiz – O‘zbekiston. Ammo shuni bilishimiz kerakki, tariximiz va buyuk madaniy-ilmiy merosimiz mamlakat sarhadlari bilan chegaralanmaydi. Aslida ilmiy tadqiqot ishida chegara tushunchasi o‘ta nisbiy bo‘lib qolishi jamoatchilikka kunday ravshandir. Biz global fan taraqqiyotida o‘z milliy tafakkurimiz bilan ishtirok etishimiz kerak. Shunda bizning ham jahon ilm-u fanida nufuzimiz yanada oshadi. Bu sa’y-harakatlar muhtaram Prezidentimiz ilgari surayotgan Uchinchi Renessans poydevorini mustahkam bunyod etish g‘oyasiga hamohangdir.

Anvar BO‘RONOV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
“Bobolar izidan...” ekspeditsiyasi ilmiy rahbari

MOZIYDAN SADO

SAMARQANDLIK ROJIYNING ARZI



O‘z davrida ko‘ngil ko‘zi ochiq, oydin fikrli ziyolilar bosqinchi siyosatdonlarning yurtini umrbod qullikda saqlashdek qora niyatini yaxshi anglagan edilar. Shu bois ular sho‘ro hukumatining adolat va tenglik, tinchlik va do‘stlik siyosati qog‘ozda emas, amalda bo‘lishini talab qilishdi; sira tap tortmay “odamlar ustida ot o‘ynatgan” bosqinchilarga “quturgan mustamlakachilar” (Cho‘lpon ta’biri) sifatini berishdi. Bosqinchining tenglik, “millatlarning o‘z huquqlarini o‘zlari belgilashi” haqidagi va’dalari quruq og‘izda bo‘lib, aslida mamlakatda shaytoniy vasvasa va yolg‘on hukmronlik qilar edi.


Samarqandlik jadid Faxriddin Rojiy millat ma’rifati yo‘lida jon kuydirgan shaxslardan biri edi. Bu imzo egasining maqola va she’rlari XX asr boshlari matbuotida tez-tez uchrab turardi. Xususan, Behbudiyning “Oyina”sida uning “Tabib hikoyati”, “Shogird ila ustod”, “E’tirof” kabi o‘ndan ortiq she’ri bosiladi. 1914-yili kuzida Rojiy ulkan alloma jadid Ismoil G‘asprali vafoti munosabati bilan yozgan “Ismoilbek hazratlarig‘a” sarlavhali she’rida uni “millat qalbiga ziyo” olib kirgan ustoz, “millat g‘ami-la xasta o‘lan piri rahnamo” sifati bilan vasf etadi. Garchand Ismoilbekning jismi bu olamni tark etgan bo‘lsa ham, ishlari davom etajagiga urg‘u berib yozadi:

“Har kimig‘a ra’yi va fikri suyundurgan ustod Jisming agarchi xoki nihon o‘ldi, yo‘q nihon”.

Tabiiyki, Rojiyning bunday she’rlarida jadidona kayfiyat yetakchi. Shoirning o‘zbek (turkiy) va fors (tojik) tilida yozilgan barcha she’rlarida ijtimoiy hayot bilan bog‘lanish, maktab, maorif targ‘ibi, ilm-fanga e’tibor berish kabi adabiy tushunchalar bayoni keladi.

Faxriddin Rojiy ijodda ham, maishiy hayotda ham yangilikka intiluvchi jadid ziyolilari safida turadi. Darhaqiqat, Rojiy o‘z davrida el ichida hurmat qozongan obro‘-e’tiborli inson bo‘lganiga shubha yo‘q. Sovet hukumati esa aynan ana shunday kimsalarni o‘zi uchun xavfli hisoblar edi. Shu bois 30-yillarning qatag‘onlari bu inson hayotini chetlab o‘tmadi. Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, Rojiy 1937-yil 12-sentyabrda hibsga olinib, 23-sentyabr kuni NKVD xodimi Komachiyev tomonidan tergov qilinadi.

Tergovchining: “Siz o‘zingizga qo‘yilgan “Milliy ittihod” nomli aksilinqilobiy tashkilotga a’zoligingiz xususidagi aybni tan olasizmi?”, degan savoliga Rojiy shunday javob beradi: “Men aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkilotiga a’zo bo‘lganim, ularga aloqadorligim xususidagi aybni bo‘ynimga olmayman. Shuningdek, bosmachilarni ham qo‘llab-quvvatlagan emasman. Ittihodchi Qozi Haydarbek uyida bo‘lib o‘tgan majlislarda qatnashmaganman”.



“Sizning “Milliy ittihod”ga aloqadorligingiz to‘la-to‘kis isbotlangan. To‘g‘ri ko‘rsatma berishingizni tavsiya etaman”.

“Takror aytamanki, men hech qanday “Milliy ittihod”ga a’zo bo‘lmaganman. Ammo jadidlarga aloqadorligimni yashirmayman. Chor hukumati zamonida mashhur jadid Behbudiyning “Oyina” jurnalida ishladim. So‘ngra inqilobdan keyin 1919-21-yillarda Saidzoda Alizodaning “Shu’lai inqilob” jurnalida faoliyat ko‘rsatdim”.

Ko‘rinib turganidek, “Oyina”, “Shu’lai inqilob” xususida tergovchi so‘ramasa ham gap ochib Rojiy noqulay vaziyatda qoladi. Bunday dalillar “qo‘y terisini yopingan bo‘rilar” uchun ayni muddao edi. Qatag‘on mashinasi allaqachon ishga tushgan bu qaltis zamonda xas-cho‘pdan madad kutish foydasiz edi. Rojiy 1937-yil 21-noyabrda o‘n yil muddatga qamaladi.

Besh nafar farzandi bilan qolgan yesir xotini tomonidan mas’ul xodimlarga murojaatlar, iltimos xatlari yoziladi. Biroq bu arizago‘ylikning foydasi bo‘lmaydi.

1939-yil 14-iyulda Rojiyning o‘zi ham Respublika prokuroriga ariza bilan murojaat qiladi: *“Men arizachi 1878nchi yilinda bir kambag‘al oilasida dunyoga kelganman. Otamning asosiy kasbi chitgarlik ham muallimlik bo‘lib, kambag‘allik bilan umr kechirgan. Vafotidan keyin menga meros qoldirgan asarlari, xat va savod chiqarishga tegishli qog‘ozlardan iborat bo‘lgan...”*

Faxriddin Rojiy shu zaylda ahvolini, hayotiy faoliyatini, tergovdagi savol-javob jarayonini va nohaq qo‘yilgan aybni bayon qiladi. Og‘zi qon, niyati qora mustabid tuzumdan Rojiy haqiqatni, adolatni umid etadi. O‘ziga nisbatan uyushtirilgan “tuhmat va yolg‘on”lar isloh bo‘lishini istaydi. “Toki haqiqatsizlik bo‘lib jabr bo‘lmasin”, deydi. Chiqmagan jondan umid, degandek, Rojiy muallim bir inson hayot-mamoti bilan bog‘liq bu masalaning tekshirilishi, allaqanday chaqimchilar bilan yuzma-yuz muhokama bo‘lishini kutadi. Arizago‘y bekordan bekor orzu va xayolga berilgan edi. Qo‘liga tushgan har qanday insonni bir siqim quruq xasdek yoqish bilan mashg‘ul mustabid tuzum korchalonlari Rojiyga omonlik hadya qilishmaydi. *“Zarafshon lagerida qamalib, 10 yillik “troyka” e’lonini eshitib yotmoqdaman,* – deb yozadi Rojiy. – *Endilikda siz – Oliy organ boshlig‘i bo‘lg‘on prokuror kambag‘alparvar, haqiqatshunos, adolatlik sovet vakillaridan so‘raymanki, ishimni nazoratingizga olib, tekshirish olib, tekshirish natijasida ayolmand, kambag‘al, xizmatchi va qariligimni nazarga olib ozodlikka chiqarsangiz edi, deb Faxriddin Rojiy Nazriddinovich. 14.VII.39...”* Hech narsa tekshirilmaydi, adolat oyoqosti bo‘lib, haqiqat qoidasiga rioya qilinmaydi.

Davr an’anasiga ko‘ra, Rojiyning arizasi butunlay javobsiz qoladi. Yolg‘izgina ozod va erkin turmush ilinjida yozilgan qator bezakli sinonimli iliq so‘zlardan ham, sadoqatli xizmat va’dasidan ham aslo foyda chiqmaydi. Oqibat keksa shoir va muallim Faxriddin Rojiy 1941-yil 24-yanvarda Toshkentdagi qamoqxonalarning birida vafot etadi.

Xullas, 30-yillar oxirida minglab begunoh insonlar qamoqqa olindi, qiynoqlarga solindi, bo‘yniga tuhmat toshlari osildi; azob berildi, otib tashlandi. Shuningdek, hibsga olingan xat-savodli ziyolilar adolat va haqiqat ilinjida rasmiy idoralarga minglab arizalar yozishdi. Taassufki, bu murojaatlarni, jabrdiydalarning nolishlarini eshitib, adolat o‘rnatadigan odam topilmadi. Zotan qatag‘on mashinasining murvatlari bo‘lgan stol ortidagi bu kimsalar odam emas, borib turgan allaqanday manqurt jo‘lamonlar edi. Adolatdan umidlanib ariza berguvchi minglab rojiylarning yagona orzusi ozodlik, shaxs hurligi, yurt obodligi edi, albatta. Rojiylar jismi tuproq bo‘ldi, ruhi – tirik.

Bahodir KARIM,
professor

Mehringizni qizg‘anmang bir-biringizdan

Boshlanishi 1-sahifada.

ABDULLA QODIRIY – 1937 va... 2019-y.y.

Ey siz, Vatan deydiganlar, ey siz Vatan,
Har bo‘lar, har bo‘lmas gapga deysiz: Vatan...
Qo‘llar moyli, yuzlar moyli, ko‘zlar moyli,
Moyli-moyli oshlar oshab, yeysiz Vatan,
Esiz Vatan, esiz Vatan, esiz Vatan!

Birov so‘rmas: holing ne deb, moling ne deb?
Odam ersang magar, qil-u qoling ne deb?
Kayfiyating nadir, hasbi holing ne deb?
O‘zingiz ne, o‘zingiz ne deysiz, Vatan?
Esiz Vatan, esiz Vatan, esiz Vatan!

Buncha ham biz jaholatga bulg‘anmasak?!.
Ilm istab kecha-kunduz to‘lg‘onmasak –
Uyg‘onmasak! Uyg‘onmasak! Uyg‘onmasak!
Ne biz Vatan bo‘lolgaymiz, ne siz – Vatan,
Esiz Vatan, esiz Vatan, esiz Vatan!

Ma’rifatsiz olamda el bo‘lgaymi hech,
El degan ham shuncha g‘ofil bo‘lgaymi hech?
Johil eldan zabun ko‘ngil to‘lgaymi hech?
Qolgay Vatan, qolgay “Alif”, “Be”siz Vatan,
Esiz Vatan, esiz Vatan, esiz Vatan!..

“O‘tkan kunlar” – maning o‘tmagan kunlarim,
Otabekmas, ul maning tortgan unlarim.
Oqmachitda men jon berdim, qulunlarim,
Nomsiz Vatan, yodsiz Vatan, sassiz Vatan,
Esiz Vatan, esiz Vatan, esiz Vatan!

Shavkatli bir davron kelar o‘ktam bo‘lib,
Men Shahidlar bog‘ida bir shabnam bo‘lib,
Go‘yo cheksiz ozodlikdan o‘pkam to‘lib,
Osmonlarga tikilgayman: cheksiz Vatan,
Cheksiz Vatan, cheksiz Vatan, cheksiz Vatan!

Chorlay desam men zamonni o‘z uyimga,
Zamon boshlab kirar meni muzeyimga.
Ishonmayin o‘z ko‘zim, o‘z moziyimga,
Turganimda, she’r yangradi: Tengsiz Vatan,
Tengsiz Vatan, tengsiz Vatan, tengsiz Vatan!

Yo‘l boshlasam yangi eski shahar tomon,
O‘zgarmishdir butkul yangi davr-u zamon.
Bir maktabkim, ichi to‘la qiz-u o‘g‘lon,
Shod-u xandon she’r aytadir: Sizsiz Vatan,
Uyingizga xush kelibsiz, deysiz, Vatan,
Aziz Vatan, aziz Vatan, aziz Vatan!

VATAN BAG‘RIDA BO‘L BEDOR

Vatan bag‘rida bo‘l bedor,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q,
G‘am-u dardiga bo‘l darkor,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Valilar gar Vatan derlar,
safar andar Vatan derlar,
Vatan ichra vatanlar bor,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Jahonda mulk-u davlat ko‘p,
musofir xalq-u millat ko‘p,
Kelib ketguvchilar bisyor,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Bu keng olamda sayyohlar
kezar – teng yarmi gumrohlar,
Ulardan tinglar istig‘for,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Shu tuproq – Yer yuzi yanglig‘,
Buxoriy, Termiziy yanglig‘,
Senga nomus erur ham or,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Vatan – Boborahim Mashrab,
hamon so‘z aytadir qaqshab,
Agar bo‘ynidadir ming dor –
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Yonib shom-u saharlarda,
olov bo‘lgil shafaqlarday,
Yalov bo‘l ham yalovbardor,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Uni mangu va betakror
yaratmish Qodiri Qahhor,
Guvohdir gumbazi davvor,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Bu alvon lola maydoni –
ko‘milgan Jizzax isyoni,
Shahidlar qonidan gulzor –
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

To‘lab Cho‘lponlari o‘lpon,
yotibdir shoir-u cho‘pon,
Yurak bag‘ri jarohatzor,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Kelib ko‘r bog‘-u ayvonin,
Adiblarning xiyobonin,
Adab ham yodiga yodgor –
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Qolib – ketguvchilar bisyor,
nolib ketguvchilar bisyor,
Ulardan bo‘lmagil zinhor,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Uchar gar qosh-u mijgoning –
kutar tandirdagi noning,
Onangday mushfiq-u xoksor,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Bu olamda yagonangdir,
otang yotgan sag‘onangdir –
Xas-u xorida ming asror,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Uni kimlar havas etmas,
unga cheksiz nafas yetmas,
Buyuk izhor-u ham iqror,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Yaralmish shavkat-u shondan,
matonat birla iymondan,
Vatan sevganga tole yor,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Falak o‘pgan imoratlar,
dil-u jondan iboratlar,
Vatan paydodir-u poydor,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Xatarnok aylanur olam,
bu nolam senga, jon bolam,
Sen ogoh bo‘l-u ham hushyor,
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

Sen unga ob-u otash bo‘l,
navobaxsh-u davobaxsh bo‘l,
Jafokash bo‘l-u xizmatkor –
Vatan hech qayga ketgan yo‘q.

RIZQINGNI HALOL ETGIL

(Ustoz Erkin Vohidov she’riga tazmin muxammas)

Tonglarga salom aytib,
dunyoni xayol etgil,
O‘zbekcha kalom aylab,
umringni savol etgil.
Mehnat bila kom aylab,
kasbingni kamol etgil,
G‘ayratni mudom aylab,
g‘aflatni zavol etgil,
Uyquni harom aylab,
rizqingni halol etgil.

Mehnatda zavol bo‘lmas,
mehnatda kamol bo‘lgay,
Mehnatda malol bo‘lmas,
har luqma halol bo‘lgay,
Gar luqma halol bo‘lgay,
ul shahd ila bol bo‘lgay,
G‘ayratni mudom aylab,
g‘aflatni zavol etgil,
Uyquni harom aylab,
rizqingni halol etgil.

Majnunga savol bulkim:
Laylo nega tol o‘lmas?
Qomat nega dol bo‘lgay,
shamshod nega dol o‘lmas?
Oftob – seni chehrangday,
qosh nega hilol o‘lmas?
G‘ayratni mudom aylab,
g‘aflatni zavol etgil,
Uyquni harom aylab,
rizqingni halol etgil.

Uyqu bila kechgan dam,
har lahza uvol o‘tgay,
Gar lahza uvol o‘tgay –
umringga zavol o‘tgay,
Umringki, uvol o‘tgay –
har lahza savol o‘tgay.
G‘ayratni mudom aylab,
g‘aflatni zavol etgil,
Uyquni harom aylab,
rizqingni halol etgil.

Ogoh bo‘l-u, ogoh bo‘l,
sen tarki xayol ayla,
Sen tarki xayol-u fol,
ham tarki malol ayla,
Suvning oqishin ko‘rgil –
umringga misol ayla.
G‘ayratni mudom aylab,
g‘aflatni zavol etgil,
Uyquni harom aylab,
rizqingni halol etgil.

Har lahzaki bedordir –
har lahza Bir-u Bordir,
Har lahzaki bekordir –
o‘limga birodardir.
Har lahzaki, boy berding –
ming yilga barobardir,
G‘ayratni mudom aylab,
g‘aflatni zavol etgil,
Uyquni harom aylab,
rizqingni halol etgil.

BITTASI

Menga kun bermaydi hech ag‘yorlarimdan bittasi,
Ahli ag‘yor ichra eng g‘addorlarimdan bittasi.

So‘zga men qonim ichursam, ul mening qonim ichar,
Misli battol, berahm badkorlarimdan bittasi.

Bevafolar o‘lkasidan elchidurmi ul, va yo –
Son-sanoqsiz do‘st-u yor, dildorlarimdan bittasi?

Uyqu bermas kechalar, uyqularimdan uyg‘otur,
Ul mening bir benavo, bedorlarimdan bittasi.

Ko‘kda yulduz uchsa ko‘nglim cholg‘usi tirnalgusi,
Bul meningdir, bul mening dil torlarimdan bittasi.

Ul biri dardimni cheksa, bul biri bemor o‘lur,
Bul unga, ul bungadir bemorlarimdan bittasi.

Boshim uzra gohi chilyosinlar aylar evrilib,
Ketmagil der, sen mening darkorlarimdan bittasi.

Ikkisi ayro yasholmas hech, lek ko‘nglim sezar:
Ikkisidan bittasi bezorlarimdan bittasi.

Bitta ohim oldida, ey dahr, bozoring nadir?
Dard-u g‘am bozoridir bozorlarimdan bittasi.

Men o‘zimdirman o‘zimga do‘stim ham dushmanim,
O‘z-o‘zimga bu mening ozorlarimdan bittasi.

Bul kim-u ul kim debon ayb etmangiz, ey do‘stlar,
Ul Sirojiddin Sayyid – abgorlarimdan bittasi.

MEHR

Gullar to‘kib bahor ketar so‘ringizdan,
Erta-indin oy ham ketar qiringizdan,
Nima foyda ko‘ngildagi kiringizdan,
Mehringizni qizg‘anmang bir-biringizdan.

Maysalar ham bir-biriga suykaladi,
Qarang, hatto chumolilar to‘y qiladi.
Nechun hasad ko‘ksingizda kuy chaladi?
Mehringizni qizg‘anmang bir-biringizdan.

Bugun sizga oq dasturxon to‘shar hayot,
Taronani tog‘oraga qo‘shar hayot.
Ham singil, ham yoringizga o‘xshar hayot,
Mehringizni qizg‘anmang bir-biringizdan.

Kelolmagay endi hargiz tuproq yorib,
Otangizning mozorlari buncha g‘arib,
Onangizning izlarini o‘ping borib,
Mehringizni qizg‘anmang bir-biringizdan.

Dunyoning bu pallalari topilmaydi,
Eshiklari tun-kun ochiq, yopilmaydi.
Mehr keyin do‘konlarda sotilmaydi,
Mehringizni qizg‘anmang bir-biringizdan.

* * *

Chamandirsan chamandan tashqarida,
Chamanlar bari sandan tashqarida.

Mening jonimsan, ey sarvi diloro,
Mening jonim badandan tashqarida.

Lab-u xol-u xating berkim, na topgum
Yurib bu anjumandan tashqarida?

Muhabbat jon bilan ko‘ngil fanidir,
Nadir holing bu fandan tashqarida?

Nihol ek ezgulik bog‘iga, inson,
Yuribsan to kafandan tashqarida.

O‘zingdan ichkari kir, dilga kirgil,
Na bordir jon va tandan tashqarida?

Vatan ichra safarlar ayla, ey dil,
Vatan bo‘lmas Vatandan tashqarida.

SHAM

(Shafoat Rahmatullo Termiziyga)

Mening muhabbatim – tuprog‘imdadir,
Tuproq ko‘chmas bo‘lur, men ham ko‘chmayman.
Bir juft qaldirg‘ochim qarog‘imdadir,
Ular uchib yurar, men-chi uchmayman.

Asli mushkul ishga men ko‘ngil qo‘ydim,
Umrimni goh xayol, goh tushga yo‘ydim.
So‘z ichra ko‘karib, so‘z ichra kuydim,
O‘zdan kechdim, lekin so‘zdan kechmayman.

Yoshlik o‘tdi ketdi – ul oppoq tulpor,
Undan qirlar aro qolmish oq g‘ubor.
Yuzlaring lolaga o‘xshardi, ey yor,
Gulgun sharobingdan endi ichmayman.



Garchi xasdan baland, kasdan kamdirman,
Do‘stim, senga yondosh quvonch, g‘amdirman.
Termiziy bobodan qolgan shamdirman,
Ming yil puflasang ham aslo o‘chmayman.

ODAM – TELEFON

(Hazil)

Biqinda – bir telefon,
Bo‘yningda – bir telefon.
Bir telefon – kissangda,
Qo‘yningda – bir telefon.
Qo‘lingda – qul telefon,
O‘yingda – pul telefon.
Senga hamdamdir – kezsang
Sahro-yu cho‘l – telefon.
Qizingda – bir telefon,
O‘zingda – sir telefon.
Uyda necha joning bor –
Shuncha telefoning bor.
Qo‘ymaydi xushtorlaring,
Dilbar-u dildorlaring.
Badanlaring zirillar,
Telefoning irillar.
Kamalakni ko‘rmaysan,
Kapalakni ko‘rmaysan.
To‘xtab turib, maysaga
Boqdingmi bir lahzaga?
Bir kun o‘tsang, ey odam,
Senga kim tutar motam?
Janozangga nolonlar
To‘planar telefonlar.
Zirqiraydi biqining –
Buyrakdagi toshingmi?
Telefonlar oxiri
Yedilar-ku boshingni.
Ma’rakangda jam bo‘lib
Yeydilar ham oshingni.
Keyin do‘st-u yorlaring
Yig‘lab bardosh, sabringga,
Marmartosh telefonni
O‘rnatishar qabringga.

KARATE MASHQI

Karate bu – “qarab tep”gin
deganimi?
Havolarni tarab tepgin
deganimi?
Karate bu – “qarab tep”mi,
“qora ter”mi yo?
“Qora belbog‘” shuning uchun
qoradirmi yo?
Qorachiqlar qora cho‘g‘day
to‘qnash keladi,
“Bir karra tep” degan so‘z ham
uyqash keladi.
Oq yaktak ham, o‘ylab ko‘rsang,
yoponnimi yo
Bizning cho‘ponlarning yozgi
choponimi yo?
Qora terga botib bunda
qarab tepadir,
Balki uning chin vatani
Qoratepadir?..

BIR SATR, YARIM SATR...

Bir satr, yarim satr,
Shom-u saharim, satr.
Mening zor kechalarim,
Shams-u qamarim, satr.
Shams-u qamarim, satr,
Jon-u jigarim, satr.
Bu yo‘qlik olamida,
Qilichlarning damida,
Mening nom-u nishonim,
Oq va qora jahonim.
Shams-u qamarim, satr –
Aslim, asarim satr.
Ketganim – yarim asr,
Ko‘nglimmi yarim, asr?
Chekkan ranj-ozorlari,
Otamning mozorlari –
Mung‘ayib cho‘kib qolmish,
Yo she’rim o‘qib qolmish?

Bir satr aytmoq uchun,
So‘ng ortga qaytmoq uchun –
Shu g‘arib mozoriday,
Nuragan devoriday,
Men yillarni yemirdim,
Ne dillarni yemirdim.
Shams-u qamarim, satr,
Qonli jigarim – satr.

O‘z onamning umrini,
Ko‘zlarining nurini,
Men o‘marib yashadim,
So‘z kemirib yashadim.
Onam aytgan baytlardan,
Kaftidagi xatlardan
Kunma-kun va tunma-tun,
Tunma-tun va kunma-kun,
Qalamimni kemirib,
Men o‘tdim so‘z o‘marib.

Bu dunyoga safarim –
Xabarim, xushxabarim,
Mening shom-u saharim,
Mening jon-u jigarim.
Qolsa mendan gard qolar,
To‘rt-besh satr dard qolar.
Ketganim – yarim asr,
Ko‘nglimmi yarim asr.
Ne dey opa-singlimga,
Ular qarar ko‘nglimga?

Ham eski asrim, satr,
Ham yangi asrim, satr.
Bu yo‘qlik olamida,
Qilichlarning damida,
So‘zmas, jonlar terganim,
Qurbonliklar berganim.
Shams-u qamarim, satr –
Topsin, deb bandam qadr,
Har kun solsin dilimga,
Dilimga ham tilimga –
Xudoyi Karim satr,
Bir satr, yarim satr.

5-AVGUST – O‘TKIR HOSHIMOV TAVALLUD TOPGAN KUN

O‘zingga yaqin va qadrdon odam haqida biron gap aytish shunchalar qiyin bo‘lishini bilmas ekanman. Har kuni ko‘rishadigan, necha martalab gaplashadigan do‘stingning fazilatlari senga juda oddiy bir narsa bo‘lib qolarkan. U saxiymi, baxilmi, bag‘ri kengmi, fe’li tormi, do‘stiga vafodormi, birovning qayg‘usiga qayg‘udoshmi, negadir e’tibor bermas ekansan. Bu hammaga xos odat-da, deb qo‘yaqolarkansan.



Said AHMAD,
O‘zbekiston Qahramoni, xalq yozuvchisi

Ijod va jasorat

Iste’dodli, allaqachon xalq mehriga sazovor bo‘lgan yozuvchi O‘tkir Hoshimov to‘g‘risida bir nima yozay, deb shuncha urinaman, qani biron satr yozolsam.

Bir donishmand agar azamat chinorni bo‘y-basti bilan ko‘raman, desang sal naridan turib qara, agar yonidan qarasang, uning faqat bir bo‘lagini ko‘rasan, uzoqdan qarasang, butun salobati bilan ko‘rasan, degan ekan. Bu juda dono gap. Rassom ham yaratayotgan asarini necha martalab, orqaga bir-ikki qadam chekinib kuzatadi.

Men ham O‘tkirni sal naridan turib ko‘rmoqchi bo‘ldim... Ana shundan keyin mo‘jizaga o‘xshagan bir holatni sezdim. Men unchalik pisand qilmagan, ba’zan nazarimga ilmagan yozuvchi bola ko‘z oldimda yuksalib, chinakam san’atkorga aylandi. Endi men uni bor bo‘yi bilan, jami fazilatlari bilan, o‘zbek adabiyoti rivojiga, mustaqil respublikamizning kamoliga qo‘shayotgan munosib hissasi bilan aniq ko‘ra boshladim.

O‘tkir qanday kitoblar yozgani to‘g‘risida gapirib o‘tirish ortiqcha. Ular o‘zbek va qardosh xalqlar mulkiga aylanib ketgan. Shundoq bo‘lsa ham, bu iste’dodli adibning asarlarini tilga olmaslik insofdan bo‘lmas. “Bahor qaytmaydi”, “Qalbingga quloq sol”, “Nur borki, soya bor”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki karra ikki – besh” kabi qissa va romanlari, yuzdan ortiq dilbar hikoyalari, komediya va fojialari xalq orasida juda mashhur bo‘lib ketgan.

Totalitar tuzumning oqavasi bijg‘ib, oqib turgan bir paytda “O‘zbek ishi”, “Davlat siri”, “Do‘stlik hurmatdan boshlanadi” kabi o‘nlab maqolalarni yozish uchun katta jasorat kerak edi. O‘tkir har qanday zarbadan, hujumlardan qo‘rqmay, ba’zan hatto hayotini xavf ostida qoldirib, xalq dilida tug‘yon urib turgan gaplarni ochiq-oshkora ayta oldi.

Sho‘ro paytida Moskva matbuoti tarqatayotgan tuhmat va haqoratlardan sabr kosasi toshgan O‘tkir Hoshimov sobiq kompartiya minbaridan turib baralla ovoz bilan ularni fosh qildi: “...O‘zbek ishi” degan gapni kim o‘ylab topdi? Nima uchun “Arman ishi”, “Moldavan ishi” emas-da, aynan, “o‘zbek ishi”? o‘zbek nima yomonlik qildi? Qo‘shib yozishlar boshqa joyda yo‘qmi? “O‘zbek ishi” tufayli armiyadagi qanchadan-qancha yigitlarimiz nobud bo‘lyapti. Temir tobutlar faqat Afg‘onistondan emas, ittifoqning turli chekkalaridan ham kelib turibdi. Bizning farzandlarimizga “bosmachi”, “qo‘shib yozuvchi”, “poraxo‘r” deb qarashyapti va ochiqdan ochiq o‘ldirishyapti. “O‘zbek ishi” degan haqoratli gapni o‘ylab topganlar hali tarix oldida javob beradilar”.

“Sharq yulduzi” jumhuriyatimizda nashr qilinadigan adabiy-badiiy, ijtimoiy-siyosiy jurnallar ichida eng mashhur – ommaviy jurnaldir. O‘tkir shu jurnalning bosh muharriri sifatida aktiv faoliyat ko‘rsatadi.

Ulug‘ bobomiz Amir Temur shaxsiga toshlar otilayotgan bir paytda O‘tkir u haqda qator maqolalar e’lon qila boshladi. Hujumlardan, do‘q-po‘pisalardan cho‘chimagan bosh muharrir buyuk sarkarda faoliyatini izchil yoritishda davom etdi. Bir vaqtlar badnom qilingan “Temur tuzuklari”, “Zafarnoma”, “Kecha va kunduz” kabi asarlar shu jurnalda e’lon qilindi. Unda Qur’oni karimning o‘zbekcha tarjimasi osonlikcha bosilgani yo‘q... Undan oldinroq esa O‘zbekiston televideniyesida tashkil etilgan “Bahs” ko‘rsatuvini O‘tkir Hoshimov qariyb o‘n yil boshqardi. “Bahs”da hayotimizdagi ijtimoiy mavzulardan tashqari, oila va muhabbat masalalari keng va qamrovli yoritildi. Hammani qiziqtirgan masalalar unda dadil va hozirjavoblik bilan aytildi. Bu yerda ham O‘tkir Hoshimov kimgadir yoqmasligi mumkin, degan andishaga bormay, millionlab teletomoshabinlar dilidan tiliga chiqolmay turgan, chirsillagan gaplarni dadil ayta oldi. Bu ko‘rsatuvlar O‘tkir Hoshimovga katta obro‘ keltirdi. Teleekran oldida o‘tirgan millionlab kishilar uni adolat uchun kurashuvchi, jasur ijodkor deb baholadilar.

Agar siz uning kitoblarini diqqat bilan o‘qisangiz, ijodi xalq hayoti bilan naqadar hamohang ekaniga, sahifalar qatidan nechalab insonlar taqdiri bosh ko‘tarib chiqayotganiga guvoh bo‘lasiz. Uning yozganlari afsona ham, ertak ham emas. Sof haqiqat. Kitobxon unda yo otasi, yo akasi va yoki yaqin bir kishisi bilan uchrashadi. Ularning kurash va mehnatda o‘tgan tarixlariga ro‘baro‘ keladi. Olamdan nom-nishonasiz o‘tib ketgan, ammo shon-sharaf bilan yashagan kishilar ko‘z oldimizda paydo bo‘ladi. Ularning quvonchlaridan ko‘ksimiz qalqib-qalqib ketadi, g‘am-u anduhlaridan ko‘zlarimizdan yosh to‘kiladi.

“Ikki eshik orasi” romani qayta-qayta nashr qilinganiga qaramay, kitob do‘konlarida turib qolmadi. Talash bo‘lib ketdi-ya. Romanda urush va urushdan keyingi yillardagi qishloq hayoti, urushning jami og‘irliklarini, mahrumiyatlarini azamat yelkasida ko‘targan, o‘zi yemay topganini jangchilar og‘ziga tutgan, fidoyi dehqonlar jasorati madh qilingan. Nikoh kechasining ertasiga kuyovini jangga jo‘natib, kelinlik libosini ish kiyimiga almashtirgan chillali kelinlarning og‘ir, mashaqqatli mehnatlari, ota o‘rniga ketmon ko‘tarib dalaga chiqqan norasida go‘daklar, o‘g‘li o‘rniga yer chopib bukchaygan chol-kampirlar ko‘z oldingizda paydo bo‘ladi. Siz ularning ovozini eshitasiz, saraton jazirasida terlagan serajin yuzlarini ko‘rasiz. Ularning qaddini tik ushlab turgan kuch g‘alabaga ishonch edi. Urush yo‘llariga nigoron ko‘z tikkan chol-kampirlar tong otguncha: “Ey xudo, o‘qlar tagida yurgan bolaginamni o‘z panohingda asra”, deya duo qilardilar. Ochlik, yupunlik, ayriliqlar, erta xazon bo‘lgan muhabbat alamlari, judolik, qarg‘ish, yig‘i, g‘azab – hamma-hammasi romanda nihoyatda ishonarli tasvirlangan.

“Ikki eshik orasi” romani o‘zbek adabiyoti xazinasida o‘z o‘rnini topgan asarlardan biri bo‘lib qoldi. Bu asar xalqlar boshiga kulfat solgan ikkinchi jahon urushi to‘g‘risida yozilgan achchiq va alamli yilnomadir.

O‘tkir Hoshimov xalqimizning fidoyi, rostgo‘y yozuvchisi sifatida hamisha o‘z mavzusi bo‘lib kelgan xalq hayotini uzluksiz kuzatadi va unda aytish nihoyatda zarur bo‘lgan nuqtalarini qalamga oladi.

Vatanimizning mustaqillikka erishishi adib ijodi uchun yangi imkoniyatlar berdi. Sho‘ro zamonida yozilmagan qonun bor edi. “Sovet adabiyoti va dramaturgiyasida komediya yozish mumkin, drama yozish mumkin, ammo fojia yozish mumkin emas. Chunki sho‘ro hayotida fojia yo‘q!” Holbuki, fojia har qadamda bor edi. Saksoninchi yillarda markazdan kelib, O‘zbekistonda qirg‘inbarot o‘tkazgan Gdlyan va Ivanov deganlari qilgan xunrezliklar ham borib turgan fojia edi. O‘tkir Hoshimovning “Qatag‘on” fojiasi “o‘zbek ishi” degan bo‘hton va uning qurbonlari haqidagi shiddatli asar bo‘ldi. Fojia bugungi yosh avlodni ota-bobolarning boshiga tushgan kechagi fojialardan ogoh bo‘ling, istiqlolning qadriga yetinglar, deb ogoh qilayotgan xitobga o‘xshaydi.

1995-yil 25-fevral



Ozod SHARAFIDDINOV,
O‘zbekiston Qahramoni

El ardoqlagan adib

1963-yilning kech kuzi. Ertalablar tushgan qirov qish qo‘shini yaqinlab kelayotganidan darak bersa-da, peshinga borib havo ilib ketadi. Ufqqa tutash hududsiz paxta dalalarida talabalar mehnat qilishyapti. Bo‘yi o‘rtadan pastroq, yonoqlari biroz bo‘rtib chiqqan, jikkakkina yigitcha boshini ko‘tarmay paxta teryapti. U har hamlasida lo‘ppi-lo‘ppi ochilgan besh-oltita ko‘sakning paxtasini oladi-da, bo‘z fartugiga soladi. O‘n-o‘n besh qadam shu alfozda borgach, qaddini rostlab, bir kerishib qo‘yadi. Keyin yana terimga tushib ketadi. Shu payt uzoqdan bir qora ko‘rindi. Dam o‘tmay yaqin keldi. O‘tkir tanidi. Bu – ikki kun avval javob olib, uyiga ketgan kursdosh jo‘rasi To‘lqin Alimov edi.



– O‘tkirjon, suyunchini chiqaring! – dedi jo‘rasi. – Sizga Abdulla Qahhordan xat kelibdi. Ochishga qo‘lim bormay, uyga tashlab keldim.

O‘tkir sevinchdan o‘zini qo‘ygani joy topolmay qoldi. Garchand hali xatni o‘qimasa-da, Abdulla Qahhordek allomadan xat kelishining o‘zi uning uchun bayram edi. Ikki kursdosh ulug‘ adibning maktubini paxtadan qaytgach, hayajondan qo‘llari titrab o‘qidilar.

“O‘tkir!

“Cho‘l havosi”ni o‘qib suyunib ketdim. Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo‘ladi, qissa juda sof, samimiy, iliq, tabiiy, rohat bilan o‘qiladi.

Qissaning xat shaklida bo‘lishi ko‘p joylarda ritmni buzadi, sizni cheklab qo‘yadi. Hikoya birinchi shaxsdan olib borilsa ham shunday bo‘lar edi. Buni o‘ylang, hisobga oling.

Shu alanga hech qachon pasaymasin, ijodingiz hech qachon tutamasin!

Hurmat bilan: Abdulla Qahhor”.

O‘tkir suyunganidan o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoldi – go‘yo birdan bo‘yi o‘sib ketganday, qo‘lini cho‘zsa yulduzlarga yetadiganday his qildi. Axir, kimsan – Abdulla Qahhordan har kuni maktub olavermaysan-da! Seni adabiyotimizning “ulug‘vor chinori” deb ta’rifi ketgan ustoz yozuvchi tan olib turibdi-ya!

Chindan ham “Cho‘l havosi” maqtasa maqtagudek edi. Qissa yoshlar hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ilk muhabbat, totli visol onlari, dastlabki iztiroblar haqida hikoya qilingan edi. Bu kichik qissa jurnalda e’lon qilinishi bilan ko‘pchilik yoshlarning e’tiborini jalb qildi, uning to‘g‘risida qizg‘in bahslar boshlandi. Shuning uchun Abdulla Qahhorning bu qissaga e’tibor berganiga ajablanmasa ham bo‘ladi. Lekin shundoq bo‘lsa-da, baribir, savol tug‘iladi: yoshlarga bag‘ishlangan, ularning hayotdagi dastlabki mustaqil qadamlarini, ilk izlanishlarini tasvirlagan hikoya va qissalar, o‘sha kezlarda juda ko‘p bo‘lmasa hamki, har holda bor edi. Nega endi Abdulla Qahhor ularning ichidan O‘tkirnikini ajratib oldi? Uslubining ravonligimi? Tilining dilraboligimi? Bayondagi samimiyatmi? Aytmoqchi bo‘lgan gapining salmoqdorligimi? Qahramonlarining insoniy jozibasimi? Tasvirlanayotgan hodisalarni yaxshi bilishimi? Ehtimol... Ehtimol, shularning biri yoxud bir nechasi, yoki hammasi jam bo‘lib, katta yozuvchining zavqini qo‘zg‘agandir. Yana savol tug‘iladi: aslini olganda, badiiy asar nimasi bilan kishini rom qiladi?

Yoki “ijod” degan narsaning biror ko‘zga chalinmas siri bormi? Bor bo‘lsa, bu sir nimada?

Juda ko‘p odamlar san’atning siri borligini hech ikkilanmay tan olishadi va bu sirni iste’dod deb hisoblashadi. O‘tmishda ham, bizning zamonamizda ham minglab mutafakkirlar, zukko aql egalari shu “iste’dod” degan narsaning mohiyatini aniqlashga, uning qayerdan kelib chiqishini bilishga, tabiatini belgilashga urinishgan. Ayniqsa, shoirlar, adiblar, munaqqidlar bu chistonni chaqishga ko‘p uringanlar. “Iste’dod” degan narsaga berilgan ta’riflar bir joyga jamlansa, bir necha jildlik kitob bo‘ladi. O‘tkirning o‘zi ham bu masalada ancha bosh qotirgan. U yozadi: “Bir toifa odamlar bor. Men hayotda ko‘p narsa ko‘rdim, endi kitob yozsam bo‘laveradi, deydi. Yana bir toifa bor. Men ko‘p kitob o‘qidim, ilmim yetarli, yozuvchilik qilaversam bo‘ladi, deydi. Ikkala fikr ham xato. Ko‘p narsa ko‘rgan bilan, ko‘p narsa o‘qigan bilan odam yozuvchi bo‘lib qolmaydi. Buning uchun talant kerak. Talantning birinchi belgisi – chidab bo‘lmas dard demakdir. Dard esa havas emas, zarurat!”

O‘tkir haqida yozilgan qator maqolalarda adibning joziba sirini ochib berishga intilish bor. Munaqqidlar adib uslubining eng jozibali, eng yarqiroq tomoni sifatida, asarlariga ajib bir tarovat baxsh etib turgan omil sifatida adib qahramonlarini bevosita hayotdan olishini, tasvirlayotgan voqealari ham hayotda ro‘y bergan yoxud ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqealar ekanini, xullas, adib hamisha hayot haqiqatiga og‘ishmay amal qilishini aytishadi. Binobarin, yozuvchi qanchalik hayotga o‘xshatib yozsa, shuncha yaxshi. Bir qarashda, bu gaplarning bari to‘g‘ri, ijodning sirini ochib beradigan gaplarga o‘xshaydi. Darhaqiqat, har qanday yozuvchi hayotdan kelib chiqadi, hayotga tayanadi, hayotni aks ettiradi. Shu bilan birga, bu gapni ijodning birdan-bir qonuni, yakka-yu yolg‘iz talabi deb ham bo‘lmaydi. Agar shunday bo‘lganda yozuvchi san’atkor bo‘lmay qolardi, oddiy nusxakash darajasidan ko‘tarila olmas edi.

Yana O‘tkirga murojaat qilaylik:

“...Tasavvur qiling: Siz kitob o‘qiyapsiz. Oq qog‘ozda qora chiziqlar – harflardan bo‘lak hech qanaqa rang yo‘q. Hech kim kuy ham chalmaydi. Ammo asarni o‘qishga kirishishingiz bilan ko‘z o‘ngingizda rangin manzaralar paydo bo‘ladi; qulog‘ingiz ostida ajib ohanglar jaranglay boshlaydi. O‘zingiz bilmagan holda qattiq hayajonga tushasiz... Hech shubhasiz, adabiyot – dunyodagi sakkizinchi mo‘jiza! Yo‘q, O‘tkirjon, adashyapsiz, sakkizinchi emas, birinchi mo‘jiza! Avval Kalom bo‘lgan”, degan gap ham bor-ku... Axir, badiiy adabiyot mo‘jiza bo‘lsa, unda uni yaratadigan odamlar ham o‘zimiz qatori jo‘n odamlar emas, allanechuk mo‘jizakor odamlar bo‘lib chiqadi-ku! Qo‘ying-chi, san’atkor bo‘lmoq uchun san’atkorning boshqa oddiy odamlarnikidan farq qiladigan o‘zgacha ko‘zi bo‘lmog‘i, o‘ziga xos qalbi, o‘ziga xos ko‘ngli bo‘lmog‘i lozim. Oddiy odam oddiy ko‘zi bilan, masalan, bepoyon dengiz bag‘rida suzib borayotgan oq kemani ko‘radi, san’atkor esa aynan shu manzaraga qo‘shimcha tarzda shu kema darg‘asini otasi deb faraz qilgan, undan najot va himoya kutib, baliqqa aylanib kema ketidan suzib ketayotgan bolani ko‘radi. Ko‘radigina emas, uni o‘z qalbi orqali o‘tkazib, o‘z hayajoni, o‘z quvonchlari, o‘z iztiroblariga burkab, boshqalarning yuragini jizillatib kuydiradigan tarzda tasvirlab ham beradi. Ha, har qanday hayot hodisasi, har qanday inson taqdiri san’atkor qalbi orqali o‘tibgina, uning qalbida qayta ishlangandagina san’at hodisasiga aylanishi mumkin. O‘tkir aytgan mo‘jiza xuddi shu jarayon oqibatida ro‘y beradi, san’atkorning siri yoxud sehr-u jodusi ayni shu jarayon zamirida yashiringandir.

Esingizdami, bir ertak bo‘lardi: uchta o‘rtoq safarga chiqishibdi. Bir joyda tunaydigan bo‘lishibdi va galma-gal navbatchilik qilishibdi. Birinchi yigit bekor o‘tirmay deb, yog‘ochdan qo‘g‘irchoq yasabdi. Ikkinchi yigit, unga libos yasab, qiz boladek kiyintiribdi. Uchinchi yigit esa Allohdan qo‘g‘irchoqqa jon ato qilishini tilabdi. Keyin... sahar chog‘i ularni sohibjamol bir pari uyg‘otadi... San’atda ham ijodkorning qalbi hayotdan olingan qo‘g‘irchoqqa jon ato etadi, uni tiriltiradi. “Qanday qilib tiriltiradi?” deb so‘rarsiz. Men buni bilmayman va o‘ylaymanki, buni hech kim bilmaydi, hatto san’atkorning o‘zi ham har qancha tirishmasin, buni sizga aniq-tiniq tushuntirib berolmasa kerak. Va yana o‘ylaymanki, shu sir ijodga, san’atkorga alohida bir favquloddalik, aql bovar qilmaydigan sehr-u jodu, otashnafaslik, boringki, istasangiz, allanechuk ilohiylik baxsh etadi. Axir, biz hazrat Alisher Navoiyni, yoxud hazrat Ahmad Yassaviyni o‘zimiz bilan bir safga qo‘yib, ularni jo‘n, o‘zimiz qatori odamlar, deya olmaymiz-ku! Buni xayolga keltirishning o‘zi allanechuk osiylik, g‘alati bir shakkoklik bo‘lmaydimi? Shunday ekan, zamondosh adib-u shoirlarimizga ham bu iborani qo‘llashdan cho‘chimaylik.

Men yuqorida O‘tkir Hoshimovni hammamiz qatori oddiy odam, deb atagandim. Lekin bu gapning bir qismi edi, xolos, hali “berdisini” aytganim yo‘q. Holbuki, uning asarlari bilan tanishganda, ularda qalbingizga jon ato qiluvchi nafasni his qilganda O‘tkir ham Erkin va Abdulla, Halima va Omon kabi Xizr nazar qilgan odam ekaniga, u yaratgan ko‘pgina asarlar tomirida ilohiy qon oqayotganiga imon keltirasiz. Menimcha, o‘zi chinakam san’atkor bo‘lgan Abdulla Qahhor xuddi shu sababdan O‘tkirning birinchi qissasini umumiy oqimdan ajratib ola bildi. Xuddi shu sababdan adib keyinchalik el-u yurt ardog‘iga sazovor bo‘ldi.

2000-yil, avgust

KUN MAVZUSI

Qadrli narsa tejaladi



Ro‘zimboy HASAN,
jurnalist

Mana, bir necha oydirki ijtimoiy tarmoqlarda asosiy mavzu – elektr energiyasi to‘lovida o‘rnatilgan limitdan nolish. Limit o‘rnatilgani adolatsizlik, deb baqirganlar, limitni 500 KvTga ko‘tarishni talab qilganlar qancha...

Avvalo, shuni aytish kerakki, so‘nggi yillarda aholining elektr energiyasiga bo‘lgan talabi keskin oshdi – har bir xonadonda elektr bilan ishlaydigan turli maishiy uskunalar ko‘paydi. Yana bir tomondan elektr tokida harakatlanadigan yengil mashina, mototsikl, skuterlar. Har bir xonadonda changyutkich, har bir xonada sovutkich, televizor, muzlatgich va yana “Ariston” suv isitgich uskunalari.

O‘tgan asrning oltmishinchi yillari faoliyat boshlagan Taxiatosh issiqlik elektr stansiyasi o‘sha vaqtda Qoraqalpog‘iston, Xorazm va qo‘shni Turkmanistonning Toshhovuz viloyati aholisini elektr toki bilan ta’minlagan. O‘sha davrda bu hududda ikki million aholi yashagan. Va yana har bir tumanda ko‘pi bilan uch-to‘rtta korxona faoliyat yuritgan.

Hozir-chi? Taxiatosh IESdan elektr toki oladigan aholi soni to‘rt million atrofida. Har bir tumanda kamida mingtacha katta-kichik korxona ishlab turibdi – ular soni kun sayin oshyapti. Yoki 1980-yillarda Xorazmdagi 110 ta kolxozda 1600 ta suv chiqaruvchi nasos kerosin yoqilg‘isi bilan ishlagan bo‘lsa, bugun vohada ularning soni o‘ttiz mingdan ortiq bo‘lib, barchasi elektr toki bilan harakatga keladi. Biz hali har bir tumanda qanchalab yirik issiqxonalar qurilgani, bundan tashqari, sabzavot va mevalarni qish oylari oxirlarigacha saqlaydigan yirik sovutkichlar soni oshayotganini eslatmayapmiz. Bularga ham ozmuncha elektr toki ketmaydi.

Deyarli ellik yildan oshiq o‘tgan davrda elektr toki hosil qiluvchi stansiyalar qurishni hech kim o‘ylamadi. Esingizda bo‘lsa, o‘n yillar oldin elektr energiyasi ta’minotida yetishmovchiliklar sabab uzilishlar, cheklovlar haddan oshib ketgandi. Davlatimiz rahbari va hukumatimiz bu sohada yuzaga kelgan muammoni hal qilish uchun katta loyihalarni amalga oshirishga kirishdi. Shu harakat natijasi o‘laroq, Yangiariqda turk birodarlarimiz gaz bilan ishlovchi yirik elektr stansiyasini qurib ishga tushirdilar. Bundan tashqari, kamomad o‘rnini to‘ldirish uchun quyosh panellari o‘rnatishga katta e’tibor qaratilmoqda.

...Bir kilovatt elektr energiyasi hosil qilish uchun oz xarajat ketmaydi – tok osmondan tushmayapti. To‘g‘ri, Xorazmning Pitnak shahrini elektr bilan ta’minlaydigan Tuyamo‘yin GESi faqat Amudaryoda suv toshgan vaqtlari nisbatan arzon elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Daryomiz esa yil bo‘yi to‘lib oqmaydi. Yurtimizda bu kabi elektr stansiyalari sanoqli. Suv taqchilligi sharoitida elektr toki hosil qilishning bu turi tobora ahamiyatini yo‘qotib boryapti.

Bugun jahon bozorida gaz, neft narxi ko‘tarilayotgani ularning mavjud zaxiralari kamayib borayotgani bilan izohlanadi. Deyarli barcha elektr hosil qiluvchi stansiyalar gaz yoki mazut bilan ishlashini inobatga olsak, xomashyoning qimmatlashuvi tabiiy ravishda ishlab chiqarilayotgan mahsulot – elektr toki narxi oshishiga olib keladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi noroziliklarga rasmiy munosabat bildirgan Energetika vazirligi mas’ullari har bir kilovatt elektr energiyasining tannarxi 900 so‘mdan oshiqroqqa tushayotganini aytishdi. Shu paytgacha elektr energiyasining narxi va aholiga yetkazib berish narxi orasidagi kattagina farqni davlat



subsidiya evaziga qoplab kelgan edi. Davlat g‘aznasi cho‘zma qop emas – turli tomonga cho‘zsang. Qolaversa, davlat g‘aznasi siz-u bizning maosh-daromadlarimizdan olinadigan soliqdan shakllanadi, ya’ni bu – umummablag‘.

Yaxshi bilamiz, mustaqillikning o‘tgan chorak asrida tizimda to‘laqonli islohotlar o‘tkazilmadi – sobiq tuzum davridan meros qolgan elektr taqsimlovchi uskunalar va hatto ayrim hududlarda simyog‘ochlar ham yangilanmadi. Vaqt izdan chiqargan eski uskunalar tizimda turli avariyalar keltirib chiqarib, uzilishlar kuzatildi. Faqat oxirgi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan tizimni to‘la qayta isloh qilishga jiddiy kirishildi. Buni joylarda yangi elektrostansiyalar qurib ishga tushirilgani ko‘rsatib turibdi. Ayniqsa, “yashil energiya” loyihalari tizimli amaliyotga aylanmoqda. Misol uchun, amaldagi yilning o‘tgan davrida ishga tushgan 2.4 gegavatli 10 ta quyosh va shamol elektr stansiyalari yarim yil davomida 1.5 milliard kilovatt energiya ishlab chiqarib, iste’molchilarga yetkazib bergan. Yoki Orol dengizining qurigan havzasida chet ellik hamkorlar bilan Markaziy Osiyoda eng yirik quyosh elektr stansiyasi qurilishi loyihasi ishlab chiqilgan. Yaqin yillarda bu “yashil energiya” butun Quyi Amudaryo mintaqasini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlashi mumkin bo‘ladi. Ungacha esa...

...Mesit deb ataluvchi elatimizda hozirda 130 xonadon bor. Bundan chorak asr ilgari butun elat ahlining elektr tokiga bo‘lgan ehtiyojini bitta transformator uddalardi. So‘nggi besh yilda transformatorlar soni 10 dan oshdi. Sabab...

Aholi ehtiyoji inobatga olinib, mo‘tadil, me’yordagi tok yetkazib berish uchun yangidan ikkita transformator o‘rnatildi. Fermer yer maydonlari va aholi tomorqalarini sug‘orish uchun shu davrda o‘ttizdan ortiq tok bilan ishlaydigan suv nasoslari paydo bo‘ldi. Va yana...

Elatimizda faoliyat yuritayotgan “Anvar-Akbar” fermer xo‘jaligi rahbari, O‘zbekiston faxriysi, 70 yoshlardagi Anvar Ro‘zmetov bilan suhbatda yana bir muammo ustida to‘xtaldik. Ma’lum bo‘lishicha, elektr energiyasini yetkazib berishda yopiq kabellardan foydalanish tokni tejashi mumkin, ammo bu usul – yer ostidan yoki ustidan kabellar orqali tokni tarqatish juda qimmatga tushadi. Vaqti kelib, shaharlarda bo‘lgani kabi tejamkor bu usul qishloqlarda ham joriy qilinar.

Xo‘sh, nima qilmoq kerak?

Talab katta: isrof qilish emas, tejash orqali maqsadga erishish mumkin.

Shu o‘rinda o‘z xonadonimdan misol qilsam. 1990-yillarda tiklagan imoratim 11 xonadan iborat. Barcha yashash xonalari, dahlizlar, qo‘shimcha xonalar ham elektr energiyasida ishlaydigan uskunalar o‘rnatishga mo‘ljallangan. Uch yil oldin eski chiroqlarni tejamkorlariga almashtirdik. Ko‘p tok iste’mol qiladigan lampali televizordan voz kechildi.

Ko‘pchilik “limit yetmayapti” deb dod-voy ko‘targan o‘tgan may va iyul oylarida shu katta xonadonimiz 180-190 kilovatt tok iste’mol qildi. Nima evaziga?

Kelinlar ertalabdan besh litr hajmli to‘rt-beshta yelimidishni suvga to‘ldirib, quyoshning ko‘ziga qo‘yib qo‘yishadi. Undagi suv bir zumda isiydi. (Hatto peshinga borib qaynoq bo‘ladi). Shu hisobdan “Ariston” tokda suv isitish uskunasini ishlatishga hojat qolmaydi. Kir-chir, idish-tovoq beminnat quyoshda qizigan suvda yuviladi, hatto dushda cho‘milish ham mumkin.

O‘tgan yillari uzunligi 14, eni 4 metr bo‘lgan dahlizda mo‘tadil harorat saqlash uchun konditsioner kecha-yu kunduz ishlardi. Hozirda konditsionerni faqat kun qizigan vaqtda ko‘pi bilan ikki-uch soat ishlatyapmiz. Shuyam nevaralar o‘ynaydigan, televizor ko‘radigan, ovqatlanadigan dahlizda mo‘tadil harorat saqlanishini ta’minlayapti.

Qisqasi, ustomonlik bilan tejamkorlikka erishdikki, limit degani ta’sirini ko‘rsatmadi – hatto yodimizga kelgani ham yo‘q.

Ma’rakada limitni so‘kkan bir elatdoshimning elektr tokidan qanday foydalanishini yaxshi bilaman. Kecha-yu kunduz konditsioneri o‘chmaydi, televizor ko‘rsinlar-ko‘rmasinlar “vag‘illab” yotadi. Tunda yoqib qo‘ygan ko‘cha chirog‘ini tong yorishganida o‘chirish esidan chiqadi. Unga “qadrli narsa tejaladi”, deb maslahat solganingiz bekor. “Pulini olgandan keyin limiti nimasi?” deb dam uradi...

Kuyovim bankda, qizim esa maktabda ishlashadi. Ular o‘tgan yili quyosh panellari o‘rnatishdi. Limit mavzusi qo‘zg‘alganida qizim g‘alati gap aytdi: “Bizlar bir yildan beri tokka pul to‘lamaymiz, hatto ortiqcha ishlab chiqqan tokni tuman elektr ta’minoti idorasi bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha ularga sotamiz ham”.

Bugun ayrimlar quyosh panellari sifati, yaroqliligi haqida turlicha afsonalar to‘qishadi. O‘sha odamlardan “Uyingizga quyosh paneli o‘rnatganmisiz?” deb so‘rasangiz yelka qisadi. “Kim tabib – tanasida sinab ko‘rgan tabib”, degan otaso‘zimiz allaqachon yodimizdan ko‘tarilgan.

Onam rahmatli “Rizqingni sot – ravshan ol!” degan qadim otaso‘zimizni ko‘p takrorlardilar. “Anovi chiroq nega yonib turibdi? Arzon ekan deb bekorga ishlatmanglar! Isrofgarchilikning oxiri qahatchilik bo‘ladi”, deb dakki berardilar bizlarga.

Onam yodimizga muhrlagan o‘sha ravshanlik – elektr energiyasi hayotimizning ajralmas bir bo‘lagiga aylangan ekan, undan tejab foydalanishdan boshqa ilojimiz yo‘q. Bu tejash avvalo o‘z cho‘ntagimizga, qolaversa, yangi xonadonlar, tadbirkorlik shoxobchalari ko‘payishiga foyda.

...Ha darvoqe, hozirda mazkur limitni har bir xonadonda yashaydigan oilalar sonidan kelib chiqib belgilash bo‘yicha o‘rtaga tashlangan taklifni amaliyotga aylantirish ustida ishlashyapti ekan. Ijtimoiy himoya birinchi o‘ringa qo‘yiladigan davlatimiz siyosatida bu amaliyotga o‘tilsa, g‘oyat adolatdan bo‘lardi. Negaki, o‘sha 200 kilovattlik limit ikki kishi yashaydigan xonadonga ham, ichida ikki-uchta oila va kamida 10 nafar odam yashaydigan xonadonlarga ham teng taqsimlangan.

...Ikki oylik tajribamdan (bir umrlik desam ham xato emas) kelib chiqib, baribir, o‘z fikrimda qolaman – birinchi navbatda tejamkorlik!

OYDINLAR

JONKUYAR JADID TARIXCHISI

XX asrning dastlabki choragida O‘zbekistonda zamonaviy tarixnavislik maktabining shakllanishiga ulkan hissa qo‘shgan birinchi o‘zbek tarix professori Bo‘lat Soliyevning faoliyati bevosita O‘zbekistondagi jadidlik rivoji bilan bog‘liqdir. Bu davrdagi tarixchi olimlar orasida uning nomi alohida o‘rin tutadi.

Bo‘lat Majidovich Soliyev 1882-yil 22-martda Astraxan shahri yaqinidagi qishloqda, savdogar Majid Soli o‘g‘li xonadonida tavallud topgan. Uning otasi mang‘it qabilasiga mansub bo‘lib, asli buxorolik bu inson Buxoro, Astraxan va Kavkaz o‘rtasida savdo-sotiq ishlarini olib borgan.

Bo‘lajak olim qishloq maktabini bitirgach, Abdurahmon Umerov madrasasida tahsil olishga muvaffaq bo‘ldi. Uning keng dunyoqarashli inson bo‘lib shakllanishida mashhur tatar ma’rifatparvari Abdurahmon Umerovning (1867–1933) roli nihoyatda ulkan. Bo‘lat Soliyev Qozon shahridagi yangi usuldagi mashhur Muhammadiya madrasasida tahsilni davom ettirib, uni muvaffaqiyatli tamomlaydi.

Shundan so‘ng u o‘sha paytda oliy ma’lumot beruvchi Ufa shahridagi “Oliya” yangi usuldagi madrasaga o‘qishga kiradi. Bo‘lat Soliyev ushbu madrasada mashhur islomshunos olim, ko‘plab ajoyib asarlar muallifi Ziyo Kamoliy qo‘l ostida tahsil oladi. Bu madrasalar va undagi yetakchi mudarrislar o‘z davrida musulmon sharqida eng nufuzli olimlardan edi. Bu madrasalarda o‘zbek, qozoq, no‘g‘ay, tatar, qirg‘iz va boshqa millat vakillari ta’lim olardi. Aynan shu dargohlarda Bo‘lat Soliyev arab, fors, turkiy, rus, nemis va fransuz tillarini puxta o‘zlashtiradi. Katta tarixchi va manbashunos bo‘lib yetishadi.

Bo‘latga “Oliya” madrasasida mudarrislik qilish taklif etiladi. Ammo u ota yurti – Turkistonga ketishga qaror qiladi. 1909-yilda Turkistonga kelib, o‘lkaning ko‘pgina shahar va viloyatlarida, jumladan, Toshkent viloyati, Farg‘ona vodiysi, Jalolobod viloyati va boshqa joylarda o‘zining jadidona ma’rifiy faoliyatini boshlaydi. Toshkent va Qo‘qon maktablarida tarix, arifmetika, ona tilidan dars beradi.

1915-1916-yillarda Bo‘lat Soliyev Samarqandda ishlaydi. 1916-yilda uning hayotida muhim voqea sodir bo‘ladi. Shu yili olim yana bir ma’rifatparvar Hodi Fayziyning singlisi Fotima Fayzirahmonovaga uylanadi. Kelinning otasi Zarifulla o‘qimishli inson bo‘lib, Buxoro madrasalarida tahsil olgan edi.

1917-yil Bo‘lat Soliyev Rossiya muvaqqat hukumati raisi A.F.Kerenskiy bilan uchrashib, u bilan Turkistonda xalq maorifini rivojlantirish haqida suhbatlashadi. Shuning o‘ziyoq uning Turkistonda maorif va madaniyatning rivoji uchun jonkuyarlik bilan qaragan ziyoli ekanini tasdiqlaydi. Suhbatda Muxtoriyat masalasi asosiy muhokama mavzusiga aylanadi. Bo‘lat Soliyev “El bayrog‘i” gazetasining 1917-yil noyabr oyida chiqqan sonida Turkiston muxtoriyatiga murojaatnomasida: “Inson qoni bilan sug‘orilgan yer osmonga nido qilib tinchlik so‘ramoqda, holdan toygan insoniyat holsizlik bilan qilichini tushirmoqda, insoniy bema’nilik ilohiy oqillikka yo‘l bermoqda”, degan fikrlarni yozadi.

Olim 1917-1918-yillarda Turkiston muxtoriyati hukumatidagi faoliyati davomida salmoqli



ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, Turkiston o‘lkasida hurfikrlilik va milliy istiqlol g‘oyalarining har tomonlama teran anglanilishida ham boshqa jadidlar qatorida faol ishtirok etdi. Bu orada Toshkentdagi bolsheviklar hukumati vakillari ham qo‘l qovushtirib o‘tirgani yo‘q. 1918-yil 19-yanvarda Toshkentda boshlangan Turkiston o‘lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlarining favqulodda IV syezdida Muxtoriyat keskin tanqid ostiga olindi. Ushbu syezd Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a’zolarini qonundan tashqari deb e’lon qildi. Bolsheviklar o‘z qo‘shinlariga Qo‘qonni ayovsiz g‘orat qilishga buyruq berdi.

Natijada deyarli mutlaqo himoyasiz Qo‘qon shahrida 1918-yilning 18–21-fevralida minglab begunoh insonlar halok bo‘ldi. Shu tariqa Muxtoriyat qonga botirildi. “El bayrog‘i” gazetasi o‘zining mart oyida chiqqan sonlaridan birida bolsheviklar tomonidan berilgan va’dalar mutlaqo bajarilmaganligi, Petrograd xalq komissarlari sovetining demagogik va ikkiyuzlama siyosati natijasida, ular bir tomondan barcha xalqlarning Rossiyadan ajralib chiqish huquqini e’tirof etgan holda, ellarning to‘liq o‘z taqdirini o‘zi belgilashi haqida gapirganligi, keyin esa o‘sha hududlarda qonli qirg‘inlar uyushtirganligini fosh qilib chiqadi...

Muxtoriyat hukumati yo‘q qilingach, olim o‘zining siyosiy faoliyatini yakunlab, asosiy e’tiborini ilmiy-pedagogik va Turkiston tarixini o‘rganish masalalariga bag‘ishlashga qaror qiladi. 1918-yil noyabr oyida Bo‘lat Soliyev Nazir To‘raqulov va Hodi Fayziy bilan birgalikda Qo‘qon xalq universitetini tashkil etishda ishtirok etadi. Mazkur o‘quv dargohi asosan Farg‘ona vodiysidagi o‘qituvchilarning malakasini oshirish bilan shug‘ullanadi va Bo‘lat Soliyev uning direktori etib saylanadi. Ushbu oliy ta’lim muassasasi keyinroq Farg‘ona vodiysidagi dastlabki universitetlardan biri sifatida tarixga kirdi. Ayni paytda olim noshirlik ishini ham olib boradi. 1919-yilning yanvar oyidan Farg‘ona shahrida bosiladigan “Yangi sharq” va “Xalq” gazetalarining muharririyati a’zosi sifatida ham mehnat qiladi. Ayni paytda olim shu davr oralig‘ida Farg‘onada bir qancha yangi usul maktablarini tashkil etib, ularda dunyoviy fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘yadi.

1919-yilning o‘rtalarida Bo‘lat Soliyev Toshkent shahriga ko‘chib o‘tib, ilmiy-pedagogik faoliyatini davom ettiradi. Bu yillarda Turk-tatar ta’lim institutini tashkil etish ishlarida qatnashadi va ushbu institutning dastlabki direktori etib tayinlanadi. 1921-yildan ushbu o‘quv dargohi o‘zbek erlar bilim yurti deb atala boshlanadi. Bo‘lat Majidovich ayni paytda turli kurslarda va ishchilar fakultetida dars berib, “Tong” jurnali tahririyati a’zosi, keyinroq “Inqilob” jurnalida mas’ul kotib vazifasida ishlaydi. 1920-yilga kelib olim o‘zining dastlabki jiddiy tadqiqotini e’lon qiladi. Bu paytda u Turkiston o‘lkasidagi ko‘zga ko‘ringan tarixchi olimlardan biri sifatida tanilib ulgurgandi. Olim arab va fors-tojik tillarida yozilgan kitoblar ustida tadqiqotlar olib boradi.

Bo‘lat Majidovich ilmiy faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri – birinchi umumlashtirilgan “O‘zbekiston tarixi”ni yaratish edi. 1929-yilda uning “O‘zbekiston tarixi” nomli kitobi nashr etiladi. Ushbu asarni olimning 1926-yilda arab alifbosi asosidagi eski o‘zbek yozuvida yozilgan “O‘rta Osiyo tarixi (XI-XV asrlar)” kitobining mantiqiy davomi deb hisoblash mumkin. Chunki ikkala asarda ham olim birinchi navbatda O‘zbekistonning XII asrdan hozirgi kungacha bo‘lgan tarixiga e’tibor qaratadi va ikkala asarida ham jamiyatdagi o‘sha davrga xos sinfiy munosabatlar masalasiga to‘xtalishga majbur bo‘ladi. Olimning ushbu ikki tadqiqoti keyinchalik yaratilgan “O‘zbekiston tarixi” darsliklari va boshqa tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Afsuski, sho‘rolar davlati Turkiston muxtoriyati ishida qatnashgan barcha mahalliy millat namoyandalarini asta-sekin mahv eta boshladi. Tabiiyki, Bo‘lat Soliyevdek ko‘zga ko‘ringan millatparvar jadid ham qatag‘on mashinasi qonxo‘r gumashtalarining qattol nazaridan chetda qolishi mumkin emas edi. 1937-yilda qahramonimizning millatni uyg‘otishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyati uning otuvga hukm etilishiga sabab bo‘lgan asosiy omillardan biri bo‘ldi.

Ubaydulla QUVVATALIYEV,
Termiz davlat universiteti qoshidagi
Qatag‘on qurbonlari muzeyi direktori

MILLAT FIDOYILARI:

NIZOMIDDIN XO‘JAYEV

Boshlanishi 1-sahifada.

Moskvada sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasi Tarix instituti doktoranturasida o‘qiyotganimizda o‘sha vaqtdagi KPSS Markaziy Komiteti huzuridagi arxivning o‘ta maxsus bo‘limida turkistonlik siyosiy arboblardan Dmitriy Simyonovich Uryupin, Usmonxon Eshonxo‘jayev va Nizomiddin Xo‘jayev ishi qattiq maxfiylashtirilgan edi. Tegishli hujjatlardan foydalanish, ko‘chirma olish mutlaqo taqiqlangandi. O‘shanda uch arbob haqidagi hujjatlarni faqat o‘qib chiqish uchungina ruxsat olishga muvaffaq bo‘lganmiz. Qayta-qayta o‘sha hujjatlarni o‘qib, xotiramda saqlashga urindim. Biroq Nizomiddin Xo‘jayevning Lenin taklifiga muvofiq yozgan “Panislomizm haqida”gi xatini takror o‘qisam-da, to‘liq yod olishning imkoni bo‘lmadi. Oxiri bir kuni cho‘ntakda yashirincha ruchka va qog‘oz olib kirib, Nizomiddin Xo‘jayevning xatini tezlikda, hadik va xavotir ichra ko‘chirib olishga erishdim. Arxivdan chiqishda nihoyatda xavotirda edim. Chunki qo‘lga tushib qolguday bo‘lsam, Moskvadagi arxivlarda ishlashdan butunlay mahrum qilishlari va o‘qiyotgan joyimga chora ko‘rish uchun maxsus ko‘rsatma yuborishlari mumkin edi. Qo‘rqqanimdan oyoq-qo‘lim qaltirab, bir amallab arxiv nazoratidan o‘tdim.

Bu hujjatni ancha yillar e’lon qilishga jur’at eta olmadim. Mustaqillikdan keyingina bu noyob ko‘chirmani sharhlashga muvaffaq bo‘ldik. Xatda shunday deyilgan:

“...Taraqqiyparvar oqim 1905-1906-yillarda Turkistonning musulmon aholisi orasida ham paydo bo‘lib, bu yerdagi kishilar mullalarning johilligi va mutaassibligiga qarshi kurash olib borib, yevropacha tarzdagi, yangi usuldagi maktablarni ochdilar. Ayni vaqtda Nikolay rejimini qulatish uchun maxfiy siyosiy ishlarni olib bordilar. Bu yosh oqim jadidlik nomini olgan edi. 1917-yil fevralida Nikolay rejimini ag‘darish chog‘ida Turkiston yosh taraqqiyparvarlari Turkiston o‘lkasiga muxtoriyat maqomini berish uchun intilganlar. Turkiston taraqqiyparvarlarining ikki vakili – Mustafo Cho‘qay bilan Ubaydulla Xo‘jayev bu harakatning boshida turishdi. Shahar dumalariga to‘rt bosqichli usul bilan o‘tkazilgan saylov kampaniyasi chog‘ida birinchi bor Toshkentdan reaksion mutaassib “ulamolar” – ruhoniylar ko‘pchilikni tashkil etganliklari tufayli duma orqali “jadid”larning 25 ta yangi usuldagi maktablarini yopishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu maktablar Turkiston yosh taraqqiyparvarlari oqimi tomonidan Fevral inqilobigacha bo‘lgan davrda ochilgan edi. Oqimlar o‘rtasidagi keskinlik shu darajaga borib yetdiki, Qo‘qonda o‘tkazilgan saylov vaqtida “ulamo”chilar bilan burjuaziya to‘qnashuvida yosh mehnatkashlar oqimi vakillaridan bir necha kishi halok bo‘ldi. Ruhoniylar va ularga qo‘shilgan qora guruhlar (gubernator Likoshin, Aromskiy, Bo‘latov hamda Pershin)ga qarshi kurashmoq uchun Oktyabr inqilobidan so‘ng siz tomondan e’lon qilingan millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi huquqiga muvofiq, 1917-yil 27-noyabrda Turkistondagi yosh inqilobiy-demokratik oqim – jadidlar Turkiston muxtoriyatini e’lon qildi. Qo‘qonda muxtoriyat hukumati tuzildi. Muxtoriyat demokratik hukumati tuzilgandan keyin ko‘p o‘tmay, Toshkentdagi ruhoniylar bu hukumatni tan olmay, norozilik bilan chiqishdi. Xuddi shu vaqtda Qo‘qonda bir to‘da kishilar Sovet hukumati nomidan qurolsiz kishilarga qarshi qurol ishlatdi va Qo‘qon shahrini vayron qilib, hukumatni tarqatib yubordi. Muxtoriyat hukumati tor-mor qilinganidan keyin asosiy inqilobiy oqim muxtoriyatchilar, so‘l eserlar va kommunistlarga bo‘linib ketdi. Mazkur oqimdagi kommunistlar “Ulamolar” – ruhoniylar tashkilotini tarqatib yubordilar, so‘l eserlar esa sakkiz oy ichida asta-sekin kommunistlar tomonidan yutib yuborildi. Muxtoriyatchi – millatchi hukumat a’zolarining bir qismi Turkiston hududidan chetga qochib yashirindi. Qolgan qismi esa asta-sekin sovetlar ishida qatnasha boshladi.

Dashnoqlar, Jalolobod rus dehqonlarining quloqlari tomonidan qo‘llab-quvvatlangani va Turkiston mustamlakachilarining “kommunistlari” tomonidan noto‘g‘ri siyosat olib borilganligi tufayli bir necha ming nayzali Farg‘ona fronti vujudga keldi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona fronti tugatilgan, ammo endi Qizil ordenli dushman yana bizga qarshi turmoqda va yana o‘sha mash’um Farg‘ona partizanlik fronti hamda bu dushman mahalliy kommunistlarni va sovet ishchilarini qirib tashlagan va yana qirg‘in qiladi. Qizil armiya askarlari va dashnoqlar tinch aholini qaroqchilar niqobi ostida yo‘q qilishdi, ayollarni zo‘rlashdi. 26 ta qishloqni vayron qilishdi. Masalan, O‘zgan shahrida 1500 kishi halok bo‘lgan, Farg‘onadagi ikki yillik urush davomida olingan harbiy o‘ljalar – pulemyot, miltiq va boshqalar haqida ma’lumot yo‘q.

Sizga tavsiflash uchun Farg‘onadagi dashnoqlar haqida ma’lumot beraman: bir Abram (Arman Qizil armiyasi askari) 87 qurolsiz musulmonni qilich bilan o‘ldirdi. Quva hududida, o‘rtoq Martin 47 kishini o‘ldirdi, umuman, Dashnoqlar haqida hech kimda ma’lumot yo‘q. Farg‘onadagi vaziyatni hisobga olib, Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti raisining e’tiroziga qaramasdan, siyosiy sabablarga ko‘ra kommunist “armani” Sakov Farg‘ona diviziya harbiy komissari etib tayinlangan. Bu, birinchidan, Turkiston komissiyasining mas’ul xodimlarga – mahalliy aholiga faqatgina tarjimon sifatida munosabatda bo‘lishi bilan isbotlangan; ikkinchidan, bundan butun Turkiston voqeligini tushunish hamda mas’ul xodimlarning joylarda tutgan mavqeyini anglash mumkin.

Sharq kommunistlari mustamlakachilar orqali Sharqda kommunizm g‘oyalarini amalga oshirish bo‘yicha noto‘g‘ri siyosat olib borayotganligi, ularga ishonmasligi, Sharq mehnatkashlari ommasi hayotiga g‘oyalarni singdirishda ularni to‘g‘ri faoliyat maydonidan mahrum etayotganini kommunizm va johil aqidaparastlikni yo‘q qilish va Sharqdagi kommunistlarsiz boshqa nokommunistik harakatlarni yo‘q qilishda, hatto fanatizm darajasiga qadar kurasha olmayotganini ko‘rmasligi mumkin emas. Shunday ekan, agar Sharq kommunistlari keng siyosiy maydonga ega bo‘lmasalar, Sharqda ijtimoiy inqilobning o‘z vaqtida rivojlanishi uchun tarix va jahon proletariati oldida javobgarlikni o‘z zimmasiga ololmaydi.



Keksa matbaachi Yusuf ota Musa Muhammedov. U 1900-yildan Nizomiddin Xo‘jayev bilan Ilin bosmaxonasida ishlagan.



Nizomiddin Xo‘jayev oila a’zolari bilan.

Zo‘ravonlikning oxiri bor, sabr kosasining chegarasi bor.

Sizga bu haqida ma’lumot berib, faktlarni keltirib, Sharq, xususan, Turkiston mehnatkash ommasiga nisbatan siyosatni to‘g‘ri olib borishga e’tibor qaratishingizni so‘rayman.

Turkiston respublika o‘lka komiteti bo‘yicha mas’ul xodim, Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti raisi va Turkiston Muxtor delegatsiyasining vakili: N.N.Xo‘jayev”.

Ko‘rib turibsizki, “dohiy”ning panislomizm tahliliga yo‘naltirilgan talabiga ko‘ra bildirilgan nuqtai nazar aslida Turkiston xalqining boshiga tushgan kulfatlar, Sovet hukumatining vahshiyligi oqibatlari haqida bo‘lib, bu Nizomiddin Xo‘jayevning naqadar millatparvar va jasur shaxs bo‘lganligining dalilidir.

Yaqinda kamina maxsus arxivda saqlanayotgan Nizomiddin Xo‘jayev haqidagi hujjat va materiallar bilan tanishib chiqdim. Quyida uning qisqacha izohini e’tiboringizga havola qilmoqchiman:

“Toshkent shahar. 1935-yil 4-noyabr. O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi Maxsus 3-bo‘limi mas’uli Gaynetdinov mahbus Nizomiddin Xo‘jayev haqidagi materiallarni ko‘rib chiqib, ularni inobatga olgan holda quyidagilarni bayon qilaman:

birinchidan, N.Xo‘jayev ilgari “Milliy ittihod” aksilinqilobiy millatchi tashkilotning faol a’zosi va bu tashkilotning Markaziy Komiteti raisi sifatida Qo‘qon Muxtor Hukumati (bu ibora Turkiston muxtoriyati bo‘lishi kerak – R.Sh.) tarkibida bo‘lgan va uning qarori bilan ushbu hukumat uchun qo‘shinlar tuzish bo‘yicha komissar etib tayinlangan;

ikkinchidan, 1918-yil boshida Turkiston Muxtoriyati hukumati a’zosi sifatida Toshkentda sovetlarga qarshi namoyish uyushtirgan va uning yordami bilan hibsga olingan oq gvardiyachilarni Toshkent qamoqxonasidan ozod qilgan;



Nizomiddin Xo‘jayev ustozi, taniqli matbaachi Ilin Kurilov bilan.

uchinchidan, 1919-yilda Toshkentda bo‘lgan Osipov qo‘zg‘olonini bostirishda faol ishtirok etgan;

to‘rtinchidan, o‘zining aksilinqilobiy o‘tmishini yashirgan holda VKP(b) safiga kirgan va keyinchalik milliy aksilinqilobiy faoliyatini milliy ziyolilar orasida davom ettirgan. Partiya safidan chiqarib yuborilgach, o‘ziga yaqin odamlar orasidan partiya va sovetlar tomonidan olib borilayotgan hukumat tadbirlariga putur yetkazishga urinib, sovetlarga qarshi tashviqot olib borgan.

Ushbulardan kelib chiqib, O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissari Nikolay Zagvozdin shunday qaror qabul qilgan: “Fuqaro Nizomiddin Xo‘jayev 1886-yilda tug‘ilgan, asli toshkentlik, o‘zbek. Jahon Obidova nomidagi artelda rais o‘rinbosari bo‘lib xizmat qilgan, partiya safidan chiqarilgan. Toshkent shahri, Oktyabr tumani, Orqako‘cha mahallasi 4/6-uyda istiqomat qilgan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan javobgarlikka tortilsin. Ehtiyot chorasi sifatida u hibsga olinsin va O‘zSSR NKVD DPZda qamoqda saqlansin”.

Nizomiddin Xo‘jayevning qayerda, qachon, kim tomonidan va qanday sharoitda aksilinqilobiy tashkilotga kirgani va uning amaliy antisovet faoliyati nimalarda ifodalanganligi aniq va ravshan ko‘rsatib berilmagan.

Hibsdagi Mannon Ramziy 1930-yildagi so‘roq paytida Nizomiddin Xo‘jayev Turkiston ASSRni RSFSR tarkibidan chiqarib, Turkiya bilan birlashtirishga intilayotgan o‘zbek millatchi tashkilotiga a’zo bo‘lganligini da’vo qilgan. Ammo u SSSR Oliy sud harbiy kollegiyasining sud majlisida guvohlik berganida bu ko‘rsatmalarini rad etgan.

Bu kabi noaniq guvohliklar 1917-yildan bolsheviklar safiga o‘tgan taniqli yurtdoshimiz, Favqulodda komissiya (CHK) xodimi, Lenin huzurida bo‘lib, u bilan suhbatlashgan andijonlik Haqqul Husanboyev tomonidan ham aytilgan.

Arxiv ma’lumotnomasidan ko‘rinib turibdiki, Nizomiddin Xo‘jayevning Qo‘qon muxtoriyat hukumatida ishtirok etgani haqida hech qanday dalil keltirilmagan. Tergov jarayonida Nizomiddin Xo‘jayev o‘ziga qo‘yilgan ayblovlarni tan olmagan.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, O‘zbekiston SSR Oliy sudi jinoiy ishlar bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan Nizomiddin Xo‘jayevga qo‘yilgan aksilinqilobiy faoliyatga oid ayblov isbotlanmagan deb topilgan. Xullas, gunohi isbotlanmagan Nizomiddin Xo‘jayev 1936-yil 15-martda SSSR NKVDning qarori bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-10-moddalari 1-qismi bilan aybdor deb topilib, 3 yilga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilinadi. Ajablanarli tomoni shundaki, mahbus 6 yildan keyin – 1942-yilda qamoqda vafot etgan.

O‘zbekiston SSR Oliy sudining Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati 1957-yil 7-oktyabrdagi yopiq majlisida sobiq Ittifoq NKVD maxsus bo‘limining 1936-yil 15-martdagi Nizomiddin Xo‘jayevga nisbatan chiqarilgan qarorini bekor qilgan va to‘plangan dalillarning yetarli emasligi tufayli tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish to‘xtatilgan. Oqibatda Nizomiddin Xo‘jayev reabilitatsiya qilingan. Lekin Sovet hukumatining ikkiyuzlama siyosati andazasiga ko‘ra, ko‘plab “oqlangan” shaxslar qatori Nizomiddin Xo‘jayev nomi ham uzoq yillar norasmiy taqiq ostida qolaverdi.

Hozirda Toshkent shahridagi katta ko‘chalardan biri Nizomiddin Xo‘jayev nomi bilan ataladi. Bizning fikrimizcha, bu fidoyi insonning hayoti va faoliyatini chuqurroq tadqiq qilib, ilmiy izlanishlar olib borish, badiiy va publitsistik asarlar, film yaratish bugungi kunning talabidir. Zero, millat ozodligi yo‘lida o‘z jonini fido qilgan ajdodlarni yod etish, ularning hayotidan saboq olish va xulosa chiqarish bugungi avlod uchun ham qarz, ham farzdir.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ

QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

1933-yil 29-aprelda VKP(b) Markaziy Komiteti huzurida partiyada tozalash o‘tkazish bo‘yicha markaziy komissiya tashkil qilingan edi. Bu haqdagi qarorda aytilishicha, “partiyada temir proletar intizomini o‘rnatish va uning safini shubhali, suqilib kirib olgan shaxslardan tozalash” maqsadida mazkur komissiyaga kuchli ehtiyoj tug‘ilgan. Aslida esa, “partiyani tozalash” bahonasida milliy respublikalardagi markazdan mustaqil bo‘lishga intilgan kuchlarni yo‘q qilish, partiyani Moskvaning “kommunistcha” sabog‘ini olgan kadrlar bilan to‘ldirish, xususan, O‘zbekistondagi sobiq jadid arboblar, milliy ziyolilar qatlamini hokimiyatdan butunlay chetlatib, ularni keyinchalik qatag‘on qilish uchun zamin hozirlangan. O‘rta Osiyodagi kommunistik tashkilotlarni “tozalash” vazifasi 1929-yilga qadar OGPUning Sharqiy bo‘limi rahbari, 1934-yildan VKP(b)ning partiyaviy nazorat komissiyasi rahbari lavozimida ishlayotgan Yakov Xristoforovich Petersga yuklatilgan. U O‘rta Osiyoda, xususan, O‘zbekiston SSRda turli rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko‘rsatayotgan davlat va jamoat arboblarini millatchilik va ayirmachilikda ayblash, ularni partiya safidan chiqarish maqsadida bir necha mahalliy partiya vakillariga zug‘um o‘tkazish orqali ulardan “chaquv xatlari”ni olishga muvaffaq bo‘lgan. Masalan, 1934-yilda Ya.X.Peters VKP(b) Markaziy Komitetining kotibi va partiyani tozalash bo‘yicha Markaziy komissiya raisi L.M.Kaganovichga yo‘llagan telegrammasida O‘zbekiston SSRda “ikkiyuzlamachilik” bilan mashg‘ul bo‘lgan bir necha yirik arboblar “Ittihod va taraqqiy”, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy, millatchi tashkilotlarda ishtirok etganini “fosh qilgani” haqida ma’lumot bergan. Quyida o‘sha xatni to‘laligicha keltirishni lozim ko‘rdik:

“VKP(b) Markaziy Komitetining kotibi va partiyani tozalash bo‘yicha Markaziy Komissiya raisi o‘rtoq Kaganovichga

O‘rta Osiyoda partiyamizni tozalash jarayonida bir qancha ikkiyuzlamachilarni fosh qildik, ular 1917-yildan 1923-yilgacha partiya a’zosi bo‘lgan holda, bir vaqtning o‘zida sobiq Turkistonda faoliyat yuritgan aksilinqilobiy millatchilik tashkilotlarning safida bo‘lganlar.

Ular orasidan menga quyidagi shaxslar ariza berishdi:

1. Sa’dulla Tursunxo‘jayev – Ittifoqning O‘rta Osiyo bo‘yicha yer ishlari xalq komissarining o‘rinbosari.

2. Ilhom Yoqubov – “O‘zyo‘ltrans” bo‘limining boshlig‘i.

3. Abulay Serg‘oziyev – Markaziy Osiyo iqtisodiy kengashi raisining o‘rinbosari.

4. Fayzulla Xo‘jayev – O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi.

5. Nizomiddin Xo‘jayev – O‘zbekiston madaniy yodgorliklar va tabiat ishlari bo‘yicha komissiya raisi.

6. Ali Rasulov – Aloqa xalq komissarligining O‘rta Osiyo bo‘limi moliya boshqarmasi raisi.

Bu arizalardan ko‘rinib turibdiki, sobiq Turkistondagi millatchi aksilinqilobiy tashkilot dastlab “Ittihod va taraqqiy” (“Birlik va taraqqiyot”), deb nomlangan. Bu tashkilot taxminan 1917-yilda tashkil etilgan, ya’ni Qo‘qon muxtoriyati e’lon qilinishidan oldin ham mavjud bo‘lgan.

“Ittihod va taraqqiy” tashkilotining pirovard maqsadi sobiq Turkiston hududida Turkiya protektorati ostida mustaqil burjua davlatini barpo etishdan iborat bo‘lgan.

Bu asosiy dastur maqsadiga ko‘ra, tashkilot 1919-yildan 1923-yilgacha quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borgan: davlat apparatini qo‘lga olish, “madaniy-ma’rifiy” ishni millatchilik, panturkchilik ruhida rivojlantirish, Sovet hokimiyatiga qarshi kurash vositasi sifatida bosmachilik harakatini tashkil etish va rivojlantirish.

Bu tashkilot, ayniqsa, Risqulov ketganidan keyin, bosmachilar harakatiga yordam berish va uni tashkil etishda jonbozlik ko‘rsatdi.

Tashkilotga Toshkentda joylashgan Markaziy Komitet boshchilik qilib, uning faoliyatini Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari, Turkmaniston va Yettisuvda mavjud bo‘lgan viloyat qo‘mitalari orqali boshqarib turgan. Viloyat qo‘mitalari, o‘z navbatida, butun O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan okrug va volost qo‘mitalari bilan uzviy bog‘langan.

Fosh etilgan ikkiyuzlamachilarning bayonotlariga ko‘ra, Markaziy va viloyat qo‘mitalari tarkibida hozirda sovet va partiya ishlarida yetakchi lavozimlarni egallab turgan quyidagi o‘rtoqlar tashkilotning rahbarlari hisoblanganlar:

1. Fayzulla Xo‘jayev – O‘zbekiston Xalq Komissarlari Soveti raisi. Ali Rasulov va Abulay Serg‘oziyevning yozishicha, u Toshkentda surgunda (1919–1920) bo‘lganida “Ittihod va taraqqiy” MQ a’zosi, Buxorodagi inqilobdan keyin esa, Buxorodagi “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti Markaziy Qo‘mitasi rahbarlaridan biri bo‘lgan. Fayzulla Xo‘jayev Buxoro inqilobidan oldin tashkilotda ishtirok etganini rad etmoqda.

2. Turor Risqulov – RSFSR Xalq Komissarlari Soveti raisining o‘rinbosari. Ali Rasulov, Tursun Xo‘jayev va Abulay Serg‘oziyevning yozishicha, u Toshkentdagi “Ittihod va taraqqiy” tashkiloti Markaziy Qo‘mitasining yetakchi rahbarlaridan biri bo‘lgan.

3. Abulay Tojiyev – Millatlar kengashi kotibi. Ali Rasulov va Ilhom Yoqubovning so‘zlariga ko‘ra, u “Ittihod va taraqqiy” tashkilotining Sirdaryo viloyat qo‘mitasi a’zosi bo‘lgan.

4. Abdulla Yormuhamedov – Qozog‘iston ASSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi o‘rinbosari. Abulay Serg‘oziyev va Ali Rasulovning so‘zlariga ko‘ra, u “Ittihod va taraqqiy” tashkilotining Samarqand viloyat qo‘mitasi a’zosi bo‘lgan.

6. Mo‘min Xo‘jayev – O‘zbekiston ta’minot xalq komissari. Ali Rasulov, Abulay Serg‘oziyev va Tursun Xo‘jayevning fikricha, u Samarqand viloyat “Milliy ittihod” qo‘mitasi a’zosi bo‘lgan, yana o‘ziga qarashli 42 nafarga yaqin shaxsni quyi ishlarga jalb qilgan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor,
A.MAHKAMOV,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

YANGI NASHR

Matbuot – jamiyatning yuzidir. Hamma davrlarda ham odamzod sifatli axborotga muhtoj bo‘lgan. Ana shu ehtiyojni aynan mutolaa qondiradi. XX asr boshlarida jadidlar millatni uyg‘otish, odamlar dunyoqarashini kengaytirish maqsadida gazeta-jurnallar ochishdi. Ilk jurnal “Oyina”ning 1-soni 1913-yil 20-avgustda nashr etilgandi. Bu katta qadam edi.

QADAMING QUTLUG‘ BO‘LSIN, “TARAQQIYOT”



Bizning taraqqiy etgan asrimizda ham matbuotning o‘rni beqiyos. Matbuotdagi materiallar tahliliy bo‘lgani uchun ham uning ahamiyati katta. “Oyina”ning 111 yilligi arafasida – 2024-yilda Vatanimizda “Taraqqiyot” jurnalining ilk soni chiqa boshladi. Birinchi son poydevor demakdir. Poydevor mustahkammi, demak, bino baquvvat bo‘ladi. Nega bunday ishonch bilan gapiryapmiz, chunki maqolalar o‘ta dolzarb va tahliliy. Kirish qismida Prezidentimizning yoshlarga oid fikrlari keltirilgan. Jurnal akademik Oqil Salimovning “Iste’dodlar – davlat qudrati, millat shon-shuhrati” nomli maqolasi bilan boshlangan. Unda “Yangilanayotgan O‘zbekiston – bu yangilanayotgan tafakkur, yangilanayotgan ong, butunlay yangi taraqqiyot yo‘lidagi fan-texnika maydonidir. Yangilanayotgan tafakkur, yangi tarixiy sharoitlarda yuzaga kelayotgan butunlay yangi milliy Uyg‘onish davri, tabiiy ravishda, yangi Renessans davri boshlanadi, deyishga asos bo‘ladi”, degan hayotiy xulosalar bor. Maqolani o‘quvchilarga yo‘riqnoma, yo‘lchi yulduz desak ham bo‘ladi. Dunyoda bo‘layotgan fikriy kurashlar haqida so‘z borar ekan, unda ilm-u tafakkurga suyanib bahsga kirgan odam muzaffar bo‘lmog‘i aniqligi haqida so‘z boradi. Keyingi sahifadan Hamid Olimjonning “O‘zbekiston” she’ri o‘rin olgan.

Shuningdek, akademik Shuhrat Sirojiddinovning “Shiddatli islohotlar”, akademik Sadriddin Turobjonovning “Texnika va taraqqiyot uyg‘unligi yetuk kadrlarga bog‘liq”, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Otabek Hasanovning “Millatni uyg‘otish – uyg‘onganlarning vazifasi”, pedagogika fanlari nomzodi Dadajon Sayfurovning “Data Sciense” – ma’lumotlar ilmi mutaxassisi”, professor Xurshid Do‘stmuhammadning “Axborot (madaniyati) asri va shaxs taqdiri”, Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa’dullayevning “Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari”, professor Qiyom Nazarovning “Umumbashariy muammolar, ma’naviy taraqqiyot va barkamol avlod tarbiyasi”, yozuvchi Shoyim Bo‘tayevning “Raqamli texnologiyalar genetik salohiyatni yuzaga chiqaruvchi zamonaviy qulay imkoniyatning sirli tilsimidir”, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi Bahodir Karimning “Behbudiy va yoshlar” maqolalari, Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyasi va boshqa maqolalar o‘rin olgan. Yuqorida sanalgan mualliflarning salohiyati, mavzular ko‘lamining kengligi, o‘quvchini o‘yga, mushohadaga, tafakkurga chorlaydigan salmoqli fikrlarning ko‘pligi jurnalning bugungi taraqqiy zamonida naqadar muhim ekanini anglatadi.

Ushbu nashrni mutolaa qilarkanmiz, “Taraqqiyot” o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarni ichdan his qilamiz. Uning maqsadi – mamlakatning ma’naviy taraqqiyotiga xizmat qilish. Yangi asrning yangi jurnali – “Taraqqiyot”ning poyqadami qutlug‘ bo‘lsin!

Zikrilla MAMATOV

HAJV

“O‘RGIN”DAN CHIQQAN O‘RGANCHIK

Saraton quyoshi tamug‘ning vaqirlagan qozonini bashariyat yodiga solib, ba’zi murtadlarni insof kanorasiga chaqira boshlagandan beri bir xil suyulgan miyalarni muzlatgichda asrash kerak bo‘lyaptiyov, Ovsar... O‘v, Ovsar dedim, ko‘zing suzilmay o‘lgur, Faxriddin do‘ltani paloviday erta-yu kech lanjlanib, esnaganing esnagan. Atrofda kallasi chayqalgan yuvuqsiz zindalar ko‘payib qolganini sen ham sezganday bo‘lyapsanmi? Bularingni qovoq kallasiga oftob juftoyoq tepib, birbirini boshiga tarvuz bilan solayotganini ko‘rdingmi? Xullas, bir balolar bo‘lyaptimi deyman-da. O‘zing har gal og‘iz ko‘pirtirib gapirasan, ba’zida bosh irg‘ashga ulgursam, ba’zida quloq qoqolmay ham qolaman. Bugun kaminayam yigit bo‘lib lab-u lunjini shishirib bir narsalar desin, sen ham odamga o‘xshab eshit. Xo‘p, nimaga muzlatgich-u nimaga miya haqida gapirganimni hozir bilvolasan.



Xullas, yirtig‘iga iskoch urib butlangan salapan qopimga ish kiyimlarimni solib Chorsuga qarab tusmollandim. Ogohsenki, Chorsuni chor tarafida arava surib ro‘zg‘or dumalataman. “Eski toshturma” atalmish serfayz makondan timirskilanib bekatga yetvoldim-da, nosqovoqqa yo‘g‘rilgan validol idishdan bir chumchuqcho‘qim otib, endi tansiq kaypini suraman deb tursam, garmoshka avtobus ortidan yangi kapanlangandek oq ko‘ylak, oq shim kiygan bir so‘xtasi sovuq chiqib, tikka meni mo‘ljallab kelaverdi. Xuddi men uni sunnat to‘yida jarohatiga kuya surtgan qarindoshiday dabdurustdan “Amaqi, besh min berin”, dedi salom-alikni qiyomatga qoldirib. Saxti sumbatiga qarasam, o‘ttiz bilan qirqlar miyonasida. Davra ko‘rgan, davr surgan dilovarlarga tortadiki, bet degan tovoqda darz tushmagan joyi yo‘q – gajak-gajak tirtiq. “Tilingdan kana tishlagur, mandan oylikka kattaga o‘xshaysan-u, “amaqingga” balo bormi?” dedim kayfim kasod bo‘lganiga kufrim qaynab. “Xop, besh min berin didim…”, dedi yana go‘rso‘xta ko‘zlarini avtobusni tomiga tikib. “Bu nima muomala? Nima, man fermer-u, san hokimmi? Yo man jo‘jaqassob-u san nalo‘giviymi?” desam, “Amaqi, polchi-molchimasmisiz, yaqinlashtirdiz, “o‘rgin”dan chiqqanman”, dedi qaddini rostlab. “Ichki o‘rgindanmi?” dedim-u... Ovsar, ho‘ Ovsar, enangni emgir, muncha sumalak yalagan mulladay shalpayasan? Agar men bilgan o‘sha jangari Ovsar bo‘lsang-u, vinoga betavfiq pastkashroq ulpat bemahal sherik chiqib, gazaging ham chalaroq amalga oshgan bo‘lsa, haligi toji tirtilgan xo‘rozni chiqqan “o‘rgin”iga qaytarib tiqib yuborarding. Issiq-sovuqni, past-balandni bizam ko‘p ko‘rib, piximiz qayrilib ketdi-yu. Itim biladimi, nabodo “iste’dodli yozuvchi”lardan bo‘lsa-chi, deb qichigan qo‘limga erk bermadim. “Barakang xirmon bo‘lgur, peshana teringni mehnat bilan to‘ksang bo‘maydimi, nima qilasan tilanchilikni?” degan gapimni finaligacha eshitmay, “Tag‘in mani tilanchi dimen, pro‘sta yo‘lkiraga tugab qoldi, man o‘zim unaqa bolamasman. Amaqi, sir bo‘masa o‘ziz nima ish qilasiz?” deydi terimchi ko‘zi bilan cho‘ntaklarimni tintib. “Sir”, dedim shimimni o‘ng cho‘ntagini shapatim bilan panalab. “Kam bil, ko‘p yashaysan”, dedim yana har ehtimolga qarshi yonboshga bir qadam tashlab. Kimligim manglayimga tatuirovka qilinganmi, bilmayman, “Nari borsa aravakashsiz-u, ne nima ish qilishizzi etmesiz?” deydi ko‘zini bilyard soqqasiday aylantirib. Esingdami, Ovsar, Abjal domla kaypi oshib qolsa mahalla guzarida supurgini tanbur qilib “Itga it bo‘l, bulbulga bulbul”, deb qo‘shiq aytib qolguvchi edi. Turqi sovuq suhbatdoshimga tik qarab “Nima, sanga o‘xshab birovlarga o‘ligimni ortvolaymi? Agar hamma manga o‘xshab o‘z aravasini o‘zi tortsa, olam gulistonli, xolam gul ishtonli bo‘p ketardi, xo‘pmi, ukam”, deb tashladim. Uniyam miltig‘i o‘qlog‘liq ekan, “Oka, holol ishledigan odammi bittasi sizmi? Qaren, eski tosh turmadan chiqqan surunkali zikka oxshesiz. Tufligiz Oysha ammamni sigirini tuyog‘iday qayrilib ketibdi-yu. Odam o‘ziga qarab yurishi kere…”, deganida, Ovsarjon, ishon, Bahodir Jalol po‘rma qip “leviy bakavoy” qivordim. Joni qattiq ekan, uch yarim daqiqacha tebranib turdi-yu, yiqilmadi dayus. Kallasini bir silkib olib, “San bilan hali kotta joylada gaplashovuza, harrip…” dedi-yu, ikki tizzasiga bexato teng to‘rttadan yamoq urilgan moltopar shimim solingan lolagul paketni qo‘limdan yulqib olib, mingga qo‘yib survorsa de. Ovsartoy, shilvachcha meni istaram-u vajohatimni ko‘rib paketimda bir bozorni boji bor deb o‘yladiyov. Ha, kul, qalay, uyqung qochdimi?

Ovsarjon, odamlarga nima bo‘lyapti? Turishi duppa-durust, qiladigan ishi attorning qutisida yo‘q. Shunaqalar seniyam yo‘lingdan chiqib qolsa men uchunam sidqidildan bir tushir, xo‘pmi?.. Aytganday, sen ham oxirgi paytlarda og‘zida ilmi bor kattakonlarga ilashib yuribsan, shu ketishda minnarsalar qilib olim bo‘p ketasan shakil. Meni bilasan, olimchilikka qiziqmayman, olimlar bilan ishim yo‘q. Chunki men bilgan ikkita Olim ham sal anaqaroq bashara. Yo‘q, internetdagi Olim kola boshqa masala. Uni tanimayman. Nabodosiga palakat bosib rosmana olim bo‘p qolsang, yarimta iltimosim, yoshlarni o‘zimizni ota-bobolardan qolgan asl tarbiyaga tortadigan kitoplar yoz. Bolachoqlar ham olim bo‘lsin, ham odam bo‘lsin.

LANDAVUR

Husan SODIQOV chizgan rasm.

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 5 995
Lotin yozuvidagi adadi – 11 924
Media kuzatuvchilar – 19 275
Buyurtma: G – 840.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 18:40
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz

TARMOQLARDA NIMA GAP?

MILLAT MAS’ULIYATI YO‘LIDA HAMFIKR BO‘LSAK...

Ijtimoiy tarmoqlarda hindlar bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur haqida film olayotgani va nomi “Buyuk mo‘g‘ul imperatori Bobur” ekani aytilayotgan xabarlar tarqaldi. Hatto film tizerlari ham tarmoqlarga yoyila boshladi.

Buyuk bobokalonimiz bilan bog‘liq tarix haqida dunyo ahlini chalg‘itish kabi bu holat mamlakatimiz jamoatchiligini, ziyolilarni tashvishga solib, keskin munosabatlarga sabab bo‘ldi.

Shu qatori meni ham bu holat qattiq tashvishga soldi va tegishli davlat tashkilotlari, elchixonalar bilan vaziyat yuzasidan ma’lumot olish uchun bog‘landim.

Aytish lozimki, film haqidagi xabarlar haqiqatdan yiroq va bunga oydinlik ham kiritilmoqda. Albatta, bu masalaga yana aniqlik kiritib, qo‘shimcha xabar beriladi.

Kinematografiya milliy agentligi bilan ham suhbatlashdik. Xabaringiz bor, O‘zbekistonda eng qadimgi o‘tmishdan to yaqin tarixgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan “Tirik tarix” loyihasi doirasida sarkardalarimiz, allomalar haqida turkum filmlar yaratilmoqda. Bu loyiha ham tez orada o‘z samarasini berib, milliy o‘zligimiz bilan bog‘liq tariximiz ekranlarda gavdalanadi.

Lekin shu o‘rinda meni xursand qilgani – milliy g‘urur, vatanparvarlik shunchaki kitoblar-u quruq so‘zlarda emas, xalqimiz ong-u shuurida yashamoqda, keng jamoatchilik esa bu kabi holatlarga aslo befarq emas.

Bu esa, aynan Prezidentimiz aytgan, tahlikali vaziyatlarda millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar jasorat bilan maydonga chiqayotganining bir ko‘rinishidir.

O‘z navbatida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi keng jamoatchilikka, ziyolilarga befarq bo‘lmagani, ajdodlarimiz bilan bog‘liq tariximizni targ‘ib qilish haqidagi fikrlari uchun minnatdorlik bildiradi.

Biz millat mas’uliyati yo‘lida hamfikr bo‘lsak, birlashsak, bu kabi qadriyatimiz, tariximiz, o‘zligimizga qaratilgan tahdidlarga qarshi tura olamiz.

Otabek HASANOV
Facebook

TILBILIM

TUZSIZ ODAM

“Tuzsiz odam”, “gapining tuzi yo‘q” kabi iboralarni eshitganda – odam yoki gap ham “tuzsiz” bo‘ladimi? – degan savol xayolingizdan kechgan bo‘lishi mumkin. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday keltirilади: “Tuzsiz – 1. Tuzi yo‘q yoki past. Tuzsiz ovqat; 2. (ko‘chma) Ma’nosi, mazmuni yo‘q; bema’ni, tuturiqsiz. Maqol: o‘zi yuzsizning so‘zi tuzsiz. “Qo‘ying, tuzsiz gaplaringizni, sizga yarashmaydi”. M.O‘rinxo‘jayev. “Unutilmas kunlar”. Ya’ni, izohli lug‘atda bu so‘z ovqatga solinadigan osh tuziga bog‘lab tushuntiriladi.



Lekin bu ibora bugun yo kecha paydo bo‘lgan so‘z emas, hattoki u eng qadimgi turkiy obidalarda ham uchraydi. Xususan, VIII asr yodgorligi Kultegin toshbitigida shunday jumla bor: “Bägläri, buduni to‘zsiz o‘cho‘n, tabg‘ach budun tabligin ko‘rlig o‘cho‘n...”, – ma’nosi: “beglari, xalqi tuzsiz (bo‘lgani) uchun, tabg‘ach elining yolg‘onlariga uchgani uchun...”

Xo‘sh, nega yodgorlikda turk beglari va buduniga nisbatan “tuzsiz” sifati ishlatilyapti? Bu yerda ham osh tuzi ko‘zda tutilganmi?

To‘g‘ri, tuz ma’dani azaldan turkiyda – tuz, lekin unga shakldosh, ammo ma’nosi farqli bo‘lgan boshqa “tuz” o‘zakli so‘zlar ham borki, Mahmud Koshg‘ariy bobomiz “Devonu lug‘otit-turk”da shunday so‘zlardan beshtasini keltiradi: 1. To‘z – qayish yoki kamarga taqiladigan va bog‘lanadigan halqa; 2. To‘z: ӧl to‘z nӧtäk? – mamlakat, el qanday? (bu yerda “mamlakat”, “yurt” ma’nosida); 3. To‘z – asl, tag, asos. Misol: äniң to‘bi, to‘zi kim? – uning tagi, zoti, asli kim? Kimga borib taqaladi? 4. To‘z: to‘z jӧr – to‘g‘ri, tekis yer. 5. To‘z – tuz.

“Devon”da alohida ma’nolari ko‘rsatilgan bu so‘zlarning aksariyati, aslida, kelib chiqishi jihatidan “tekis”, “to‘g‘ri”, “tartibli” kabi ma’nolarga ega bir o‘zakka borib taqaladi. Shuningdek, bu o‘zakdan “tuzmoq”, “tuzatmoq”, “tuzuk”, “tuzum” kabi so‘zlar ham yasalgan.

Shunday qilib, Kultegin toshbitigida: “beglari va xalqi tuzsiz bo‘lgani uchun” deyilganda “tuzsiz” sifati – “osh tuzi” emas, balki boshqa ma’nodagi “to‘z” o‘zagidan yasalgan bo‘lib, jumlada: “beglari va xalqi to‘g‘ri, tartibli, asosli, xoqoniga sodiq bo‘lmagani uchun, aksincha tabg‘ach xalqining yoqimli narsalariga aldangani uchun” degan fikr aytilyapti.

Hozir ham “tuzsiz odam”, “gapining tuzi yo‘q” deganda “tartibsiz, asossiz, tuturiqsiz odam”, “gapining asosi, tartibi, tuturig‘i yo‘q, to‘g‘ri emas” kabi ma’nolar tushuniladi. Ya’ni, uning osh tuziga aloqasi yo‘q.

Abduvohid HAYIT